YANGI O‘ZBEKISTONDA EL AZIZ, INSON QADRI AZIZ!

YANGI BEKOBOD

Toshkent viloyati Bekobod tumani ijtimoiy-siyosiy gazetasi

Gazeta 1931-yildan chiqa boshlagan

2026-yil 8-sentyabr, № 34 (8052)

BIZ UCHUN O'ZARO BOG'LIQLIK – STRATEGIK MUSTAQILLIK VA BARQARORLIK MASALASIDIR. BIZ SHUNDAY KO'P QUTBLILIK TARAFDORIMIZKI, U YANGI AJRATUVCHI CHIZIQLARNI YARATMAYDI, BALKI IMKONIYATLAR MAKONINI KENGAYTIRADI, MINTAQAVIY LOYIHA VA TASHABBUSLAR O'ZARO RAQOBATLASHMAYDI, BALKI BIR-BIRINI SAMARALI TO'LDIRADI.

Shavkat MIRZIYOYEV



“ShHT PLYUS” FORMATI VA BMT O‘RTASIDAGI HAMKORLIK ISTIQBOLLARI

Tadbirda tashkilotga a'zo davlatlar delegatsiyalari va uning doimiy faoliyat yurituvchi organlari rahbarlari bilan bir qatorda, kuzatuvchi va hamkor mamlakatlar yetakchilari, faxriy mehmonlar, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi Antoniu Guterrish va boshqa xalqaro tuzilmalarning yuqori lavozimli mansabdorlari ham qatnashdi.

O‘zbekiston yetakchisi o‘z nutqida dunyoda ro‘y berayotgan o‘zgarishlar sharoitida BMT va mintaqaviy tuzilmalarning roliga to‘xtalib o‘tdi.

– Davlatlar va mintaqaviy birlashmalar global institutlarga ularning universal vazifasini yanada samarali amalga oshirishda qanday ko‘mak berishi mumkinligini belgilab olish muhimdir, – dedi mamlakatimiz yetakchisi.

Ushbu yondashuvga ko‘ra, BMT o‘zining markaziy, muvofiqlashtiruvchi rolini saqlab qolishi, mintaqaviy tuzilmalar esa, avvalo, mahalliy sharoitlar, ehtiyojlar va imkoniyatlarga tayangan holda umumiy tamoyillar va qarorlarning amalga oshirilishiga ko‘maklashish orqali uning sa'y-harakatlarini to‘ldirishi lozim.

Bunday mantiqdan kelib chiqilganda, “ShHT plyus” formati davlatlar, mintaqalar va tashkilotlarni umumiy kun tartibi atrofida birlashtira olishi, bu yerda turli tashabbuslarni o‘zaro uyg‘unlashtirish va global boshqaruv arxitekturasini shakllantirish bo‘yicha muloqot olib borish mumkinligi tufayli alohida chuqur mazmun kasb etadi.

Ta'kidlanganidek, O‘zbekiston Yevroosiyo makonida ochiq va o‘zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirish tarafdori.

– Biz uchun o‘zaro bog‘liqlik – strategik mustaqillik va barqarorlik masalasidir. Biz shunday ko‘p qutblilik tarafdorimizki, u yangi ajratuvchi chiziqlarni yaratmaydi, balki imkoniyatlar makonini kengaytiradi, mintaqaviy loyiha va tashabbuslar o‘zaro raqobatlashmaydi, balki bir-birini samarali to‘ldiradi, – dedi mamlakatimiz yetakchisi.

Uchrashuv kun tartibidan kelib chiqib, qator istiqbolli takliflar ilgari surildi.

Avvalo, “ShHT plyus” formatini barqaror o‘sish, yuqori texnologiyalarni joriy etish, iqlimga moslashish, inson kapitalini rivojlantirish, hammabop ta'lim va yoshlarni qo‘llab-quvvatlash masalalari bo‘yicha mintaqalararo muloqot maydoni sifatida rivojlantirish taklif etildi.

Tajriba almashish, yondashuvlarni muvofiqlashtirish va BMT doirasida yechimlarni birgalikda ilgari surish maqsadida “ShHT plyus” formati mintaqaviy tashkilotlarning Hamkorlik tarmog‘ini yaratish uchun platforma bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Ustuvor vazifalardan biri esa BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda mintaqaviy tashkilotlar salohiyatidan yanada faol foydalanish sanaladi.

Tajriba almashish mexanizmi sifatida tabiatdan foydalanish, “yashil” energetika, raqamli xizmatlar hamda sog‘liqni saqlash sohalarida mintaqalararo loyihalar va texnologiyalarning Ochiq bankini shakllantirish taklif etildi.

Keng ko‘lamli iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratildi.

– Biznes barcha joyda bozorlarga kirish tartib-taomillarining soddalashtirilishi, transchegaraviy yo‘laklarning ishga tushirilishi va to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalar oqimi ko‘rinishida amaliy natijalarni his qilishi lozim, – dedi Prezidentimiz.

Samaradorlikning ana shunday aniq ko‘rsatkichlariga erishish maqsadida “ShHT Invest” forumiga doimiy faoliyat yurituvchi platforma tusini berish tashabbusi ilgari surildi.

Siyosiy tizimlari, madaniy an'analari va xalqaro jarayonlarga qarashlari turlicha bo‘lgan davlatlarning hamkorlik borasida to‘plangan noyob tajribasini yanada rivojlantirish maqsadida “ShHT plyus” madaniyatlar va sivilizatsiyalar doimiy forumini ta'sis etish hamda ushbu tadbirni ilm-fan va ma'rifatning qadimiy markazi bo‘lgan Xiva shahrida o‘tkazish taklif etildi.

Davlatimiz rahbari so‘zining yakunida “ShHT plyus” formati zamon taqozo etayotgan muloqot maydoni ekanini, mamlakatlar va mintaqalar o‘rtasidagi mushtaraklik nuqtalari qanchalik ko‘p bo‘lsa, barqarorlik hamda o‘zaro ishonch uchun asos shunchalik mustahkam bo‘lishini ta'kidladi.

Barchinoy AKBARALI
tayyorladi.

YANGI TIZIM – YANGI IMKONIYATLAR

KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH VA AHOLI DAROMADLARINI OSHIRISH BO‘YICHA ISHLAR YANGICHA TASHKIL ETILADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida kambag‘allikni qisqartirish va aholi daromadlarini oshirish bo‘yicha ishlarni yangi bosqichga olib chiqish masalalari yuzasidan videoselektor yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi.



Mamlakatimizda keyingi yillarda kambag‘allikni qisqartirish, aholini daromadli mehnat bilan ta’minlash va mahalla darajasida iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Bu maqsadlar uchun hududlarga katta vakolat, moliyaviy resurs va infratuzilmaviy imkoniyatlar berildi, har bir oila bilan manzilli ishlash tizimi yo‘lga qo‘yildi.

Natijada yil boshida 5,8 foizni tashkil etgan kambag‘allik darajasi bugungi kunga kelib 3,9 foizga tushdi. Ehtiyojmand aholi soni 2 million 200 ming nafardan 1,5 million nafarga kamaydi. Ishlar to‘g‘ri tashkil etilgan 49 ta tuman va 3 ming 429 ta mahalla ishsizlik va kambag‘allikdan xoli hududga aylanib bormoqda.

Shu bilan birga, hududlar kesimida natijalar bir xil emasligi ko‘rsatib o‘tildi.

So‘nggi uch yilda mahallalardagi tadbirkorlik loyihalari uchun 314 trillion so‘m resurs ajratildi. Lekin bir xil miqdorda mablag‘ olgan hududlarda kambag‘allikni qisqartirish samaradorligi keskin farq qilayotgani tahlillar orqali ko‘rsatildi.

Masalan, Sharof Rashidov va Qarshi tumanlariga 2 trillion 300 milliard so‘mdan kredit resursi berilgan. Sharof Rashidov tumanida mazkur mablag‘lar hisobiga 30 ming nafar aholi kambag‘allikdan chiqarilgan bo‘lsa, Qarshi tumanida 13 ming nafar ehtiyojmandning sharoiti yaxshilangan.

Shu bois, kredit ajratishning o‘zi yakuniy natija sifatida qaralmasligi, har bir loyiha qancha doimiy ish o‘rni yaratgani va qancha oilaning barqaror daromad manbaiga ega bo‘lgani bilan baholanishi belgilandi.

Yig‘ilishda joylarda natijaga erishishga to‘sqinlik qilayotgan omillar ham tahlil qilindi. Xususan, hokim yordamchilari va mahalla bankirlarining barchasi ham biznes loyihalarini shakllantirish, moliyaviy instrumentlarni to‘g‘ri tanlash va tadbirkor bilan uning g‘oyasidan tayyor biznesgacha ishlash ko‘nikmasiga ega emasligi qayd etildi.

So‘nggi bir yilda hududlarda tashkil etilgan 86 mingta kichik korxonaning 15 mingtasi faoliyatini to‘xtatgan. Bankdan kredit olib, biznesini kutilgan darajada yo‘lga qo‘ya olmagan 62 ming nafar fuqaro kreditlarni qaytarishda qiynalmoqda.

Shu munosabat bilan aholi va tadbirkorlarga faqat moliyaviy resurs taklif etish emas, balki bozor, texnologiya, kasb, biznes reja va sotuv zanjirini ham qamrab olgan kompleks yechim berish zarurligi ko‘rsatib o‘tildi.

Bu borada Xorazm viloyatida o‘tkazilgan o‘rganishlar misol qilib keltirildi. Prezident topshirig‘iga muvofiq, iqtisodiy kompleks rahbarlari ikki hafta davomida viloyatdagi 81 ming nafar kambag‘al aholi, ya’ni 19 ming oilaning sharoitini o‘rgandi. Ushbu oilalarda 12 ming nafar ishsiz va 10 ming nafar daromadi past aholi borligi aniqlandi.

Ayni paytda Xorazmdagi tadbirkorlar qurilish sohasiga 4 ming, xizmatlar sohasiga 3 ming va sanoatga 2,5 ming nafar ishchi izlamoqda. Mavjud bo‘sh ish o‘rinlari va kasbga tayyorlash imkoniyatlarini o‘zaro bog‘lash orqali kambag‘al oilalardagi 10-15 ming nafar aholi daromadini oshirish mumkinligi qayd etildi.

Shuningdek, o‘rganilgan ehtiyojmand oilalarda 48 ming nafar bola borligi, ularni hozirdan kasb-hunar va zamonaviy ko‘nikmalarga yo‘naltirish muhimligi ta’kidlandi. Yoshlar yetakchilari, hokim yordamchilari va xotin-qizlar faollariga maktablar, texnikumlar va o‘quv markazlarida bunday oilalar farzandlari uchun qo‘shimcha to‘garaklar tashkil etish vazifasi belgilandi.

Xorazmda kambag‘al oilalardagi 10 mingdan ziyod ayol farzand parvarishi bilan band. Shu bois, bola parvarishlayotgan ota-onalar uchun uyida yoki mahallaning o‘zida daromadli mehnat qilish imkoniyatlarini kengaytirish, farzandlarni maktabgacha ta’lim bilan qamrab olish orqali ularning mehnat bozoriga qaytishiga sharoit yaratish zarurligi qayd etildi.

Xorazm misolidagi tahlillar barcha hududlarga taalluqli ekani ta’kidlanib, kambag‘allik bilan ishlash bo‘yicha mutlaqo yangi tizim joriy etilishi belgilandi.

Endilikda har bir viloyat va tumanda hokim boshchiligida maxsus shtablar tashkil etiladi. Banklar, bandlik idoralari va iqtisodiy kompleksning boshqa tashkilotlari ushbu shtablar bilan birgalikda aholi bandligi va daromadini oshirish masalalarini joyning o‘zida hal qiladi.

Viloyat, tuman va shahar hokimlari iqtisodiy kompleks bilan birgalikda haftaning uch kunini bevosita kambag‘allik va bandlik masalalariga bag‘ishlaydi.

Yangi tizimning eng muhim jihati esa moliyaviy resurslar va qaror qabul qilish vakolatlarining katta qismi tuman darajasiga tushirilishi bo‘ladi. Oilaviy va yoshlar tadbirkorligi bo‘yicha imtiyozli kredit resurslarini boshqarish vakolati tuman shtablariga o‘tkaziladi.

Hozir oilaviy tadbirkorlik uchun 1 trillion 370 milliard so‘m, yoshlar tadbirkorligi uchun 450 milliard so‘m resurs mavjud. Tuman shtablari mahalliy sharoit va loyihaning xususiyatidan kelib chiqib, kimga qancha kredit berish, uning muddati va to‘lov grafigini biznes turiga moslashtirish masalalarini hal qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Kredit, lizing, faktoring, kafolat, sug‘urta, aylanma mablag‘ va boshqa moliyaviy instrumentlar tadbirkorlik loyihasining o‘ziga xos xususiyatidan kelib chiqib qo‘llanadi. Dehqonchilik, savdo, xizmatlar va boshqa yo‘nalishlarda daromadning shakllanish muddati turlicha bo‘lgani uchun moliyalashtirish shartlari ham shunga mos bo‘lishi kerakligi ta’kidlandi.

Kooperatsiyaga asoslangan loyihalarga qo‘shimcha imkoniyatlar yaratiladi. Lider tadbirkor 10 ta oila bilan kooperatsiya qilsa, 500 million so‘mgacha, 100 ta oila bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘ysa, 5 milliard so‘mgacha garovsiz kredit olishi mumkin bo‘ladi.

Kredit tarixida kechikish bo‘lgan ehtiyojmand aholining tashabbuslari ham individual baholanadi. Istiqbolli loyihalarni imtiyozli moliyalashtirish imkoniyati yaratiladi.

Kambag‘allik jamg‘armasidagi 240 milliard so‘m, Bandlik jamg‘armasidagi 100 milliard so‘m va uchta “daftar”dagi 760 milliard so‘m mablag‘ tuman shtablari ixtiyoriga beriladi. Tadbirkorlik kompaniyasining kompensatsiyalar uchun yil yakuniga qadar nazarda tutilgan 300 milliard so‘mlik resursi ham shtablar orqali yo‘naltiriladi.

Shu tariqa tumanlar ixtiyoriga jami 3 trillion 200 milliard so‘m resurs berilib, mablag‘larning aniq natija berishi asosiy mezon etib belgilanadi.

Moliyalashtirish mexanizmlarini iqtisodiyotdagi tez o‘zgarishlarga moslashtirish uchun ham yangi yondashuv joriy etiladi. Iqtisodiyot va moliya vazirligi va Markaziy bank hududlar salohiyati, biznes muhiti va bozor talabidan kelib chiqib, kredit, subsidiya va kompensatsiya mexanizmlarini har chorakda takomillashtirib boradi.

Shu bilan birga, mahalladagi hokim yordamchilari va bankirlarning salohiyatini oshirishga alohida e’tibor qaratiladi. 8 ming 992 ta mahalladagi hokim yordamchilari faoliyati natijadorlik va tashabbuskorlik mezonlari asosida qayta baholanadi.

Ikki oy muddatda maxsus o‘quv markazi tashkil etilib, unga xorijdan mutaxassislar jalb qilinadi. Hokim yordamchilari va mahalla bankirlari loyiha tayyorlash, biznes modelini hisoblash, moliyalashtirish vositalarini tanlash va tadbirkor bilan ishlashga o‘qitiladi. Eng yaxshi natija ko‘rsatgan mutaxassislarni Xitoy, Yaponiya va Turkiyaga malaka oshirishga yuborish, namunali xodimlarni qo‘shimcha rag‘batlantirish choralari belgilandi.

Yig‘ilishda tadbirkorlik infratuzilmasini rivojlantirish tizimi ham ko‘rib chiqildi. Endilikda tumanlar tadbirkorlik infratuzilmasi loyihalarining bevosita buyurtmachisiga aylanadi va zarur mablag‘lar to‘g‘ridan to‘g‘ri joylarga yo‘naltiriladi. Tuman shtablariga loyihalash, qurilish va sifat nazoratini xususiy sektorga berish huquqi ham beriladi.

Kambag‘allikni qisqartirishda ijtimoiy himoya mexanizmlari ham yangicha yondashuv asosida takomillashtiriladi. Ijtimoiy himoya milliy agentligiga yil yakuniga qadar ehtiyojmand aholini Ijtimoiy reyestrga kiritish mezonlarini qayta ko‘rib chiqish topshirildi.

Bunda faqat oila daromadi emas, balki surunkali kasallik, nogironlik, ko‘p bolalilik, oila a’zolarining xorijda ishlayotgani va boshqa ijtimoiy omillarni hisobga oladigan ko‘p o‘lchovli baholash tizimiga o‘tiladi.

Mamlakat bo‘yicha kambag‘allik darajasi 3,9 foizga tushgan bo‘lsa-da, uch yoshgacha farzandi bor oilalarda bu ko‘rsatkich o‘rtacha 6,5 foizni tashkil etmoqda. Shu bois, bola parvarishlayotgan ota-onalarni uyida yoki mahallaning o‘zida ishli va daromadli qiladigan tizim yo‘lga qo‘yiladi.

Ishlaydigan onalarga farzandi bir yoshga to‘lguniga qadar Ijtimoiy sug‘urta jamg‘armasidan nafaqa to‘lanadi. Mehnatga layoqatsiz ehtiyojmand oilalar uchun esa barqaror daromad manbai yaratadigan ijtimoiy paketlar amaliyoti davom ettiriladi. Joriy yil ushbu maqsadlarga 300 milliard so‘m ajratilgan bo‘lib, bunday ko‘mak olgan 11 ming oilaning qariyb yarmida daromad sezilarli oshgani qayd etildi.

Kelgusi yildan Ijtimoiy reyestrga kiritilgan oilalar farzandlarining davlat va xususiy bog‘cha to‘lovlari, o‘quv markazlarida ta’lim olish xarajatlari, yo‘lkirasi hamda oliy ta’lim muassasasi yotoqxonasi uchun to‘lovlar vaucher asosida qoplab beriladi. Vaucher 12 oy muddatga berilib, oila Ijtimoiy reyestrdan chiqarilganidan keyin ham belgilangan muddat oxirigacha amal qiladi.

Yig‘ilishda hudud rahbarlari oldiga yil yakuniga qadar 350 ming nafar aholini doimiy ishga joylashtirish, yana 1 million nafar aholining daromadini oshirish va 230 mingta oilani kambag‘allikdan chiqarish vazifalari qo‘yildi.

Har bir yo‘nalish bo‘yicha aniq mexanizm va harakatlar algoritmini ishlab chiqish, mahalla darajasigacha mas’ullarni belgilash vazifasi qo‘yildi. Kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha katta amaliy tajriba to‘plagan mamlakatlar, jumladan, Xitoy yondashuvi asosida aholi bilan bevosita ishlaydigan xodimlar uchun aniq ko‘rsatmalar tayyorlanadi.

Yangi tizimda asosiy mas’uliyat va resurslar joylarga tushirilib, mahalladagi har bir imkoniyatni ish o‘rni hamda daromad manbaiga aylantirish, har bir ehtiyojmand oila bilan uning sharoiti va salohiyatidan kelib chiqib ishlash ustuvor vazifa bo‘ladi.

Yig‘ilish yakunida mutasaddilar va hududlar rahbarlarining axboroti tinglanib, belgilangan vazifalarni tizimli va natijador qilib tashkil etish bo‘yicha tegishli ko‘rsatmalar berildi.

Sarvinoz SHERALIYEVA tayyorladi.

ASRLIK TARIX VA ISTIQLOL SHUKUHI

Jonajon Vatanimiz mustaqilligning 35 yilligi hamda Bekobod tumani tashkil topganining 100 yilligi – Bekobod ahli uchun bir-biridan qadrli, mazmunan mushtarak ikki ulug‘ bayramdir. Biri xalqimizning ozod va farovon hayot yo‘lidagi shonli 35 yilligini ifoda etsa, ikkinchisi bir asrlik tarix, ajdodlar xotirasi va bugungi taraqqiyot yo‘lining o‘ziga xos solnomasini mujassam etadi.

Ana shu ikki qutlug‘ ayyom tubdan yangilanayotgan Bekobod tumanida o‘zgacha ko‘tarinkilik va yuksak tantana bilan nishonlandi. Bu kun xalqimizning tarixiy xotirasi, bugungi bunyodkorlik ruhi va istiqlol bergan imkoniyatlarga shukronalik tuyg‘ularini birlashtirgan, keng ko‘lamli va unutilmas tadbirlarga boy bo‘ldi.

Bayram nafasi tumanning turli go‘shalarida sezilib, kun davomida el-yurtimizning turli vakillarini, keksa-yu yoshni bir maqsad – Vatanimiz mustaqilligi va ona zaminimizning bir asrlik tarixini e’tirof etish, bugungi tinch va obod hayotimizni qadrlash tuyg‘usi atrofida birlashtirdi.

Mahallalarning yangi qiyofasi

Bugun Bekobod tumani ulkan bunyodkorlik maydoniga aylangan. Bu jarayon nafaqat tuman markazida, balki barcha mahallalar, chekka ko‘chalar-u guzarlarda ham yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Birgina 2025-yilning o‘zida tumanda byudjet mablag‘lari hisobidan jami 370 milliard so‘mlik qurilish va obodonlashtirish ishlari amalga oshirildi. Joriy yilda esa ijtimoiy va infratuzilma obektlarini qurish hamda xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilash uchun 450 milliard so‘mdan ortiq mablag‘ yo‘naltirildi.



Bu kabi keng ko‘lamli ishlarning amaliy ifodasi, avvalo, mahallalar qiyofasida, aholi uchun yaratilayotgan qulay sharoitlarda namoyon bo‘lmoqda. So‘nggi bir yarim yil davomida 24 ta mahalla fuqarolar yig‘ini binosi yangidan qurilgani ham ana shu bunyodkorlik ishlarining muhim natijalaridan biridir. Mustaqillik bayrami kunida Bunyodkor va Terakzor mahallalarida yangi binolarning foydalanishga topshirilishi esa mahalla ahli uchun quvonchli voqea bo‘ldi. Mazkur binolarning ishga tushirilishi mahalla faoliyatini yanada samarali tashkil etish, fuqarolar murojaatlarini o‘z vaqtida ko‘rib chiqish va aholiga sifatli xizmat ko‘rsatish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Ushbu ko‘lami keng, aholimiz farovonligi uchun yo‘naltirilgan barcha ezgu ishlar ortida muhtaram Prezidentimizning Bekobod tumani va uning mehnatkash xalqiga bo‘lgan cheksiz mehr-e’tiborlari borligini butun tuman ahli chin dildan his qilmoqda.

Bolalarga bayramona tuhfa

Bayram kuni Terakzor mahallasi aholisi uchun yana bir quvonchli voqea bilan yodda qoldi. Mahallada zamonaviy talablarga javob beradigan maktabgacha ta’lim tashkiloti foydalanishga topshirilib, kichik yoshdagi bolalar uchun munosib ta’lim-tarbiya olish imkoniyatlari yanada kengaydi.

Bugungi kunda tumandagi 10 ta maktabgacha ta’lim tashkilotlarida qayta qurilish va rekonstruksiya ishlari olib borilmoqda. Buning natijasida muassasalar 970 o‘ringa mo‘ljallangan zamonaviy andozadagi ta’lim maskanlariga aylantiriladi.

Ularda bolalar uchun zarur mebel va jihozlar, yotoqxona karavotlari, kiyim-kechaklar uchun javonlar, har bir guruh uchun rivojlantiruvchi markazlar tashkil etilmoqda. Shuningdek, sanitariya-gigiena talablariga mos ravishda issiq va sovuq suv tizimlari yo‘lga qo‘yilib, yozgi sog‘lomlashtirish davri uchun ayvonchalar barpo etilmoqda.



Umuman, keyingi bir yarim yil davomida tumanda 32 ta yangi bolalar bog‘chasi barpo etildi. Ularning 22 tasi xususiy va uy bog‘chalari hisoblanadi. Natijada tumanda maktabgacha yoshdagi bolalarni bog‘cha bilan qamrab olish darajasi 2025-yil yanvar holatidagi 72 foizdan bugunga kelib 85 foizga yetkazildi. Yil yakunigacha esa qamrov ko‘rsatkichini 90 foizga yetkazish maqsad qilingan.

Inson qadri – islohotlar markazida

So‘nggi bir yarim yilda Bekobod tumanida infratuzilmani rivojlantirish va ta’lim sifatini oshirish bilan bir qatorda, aholi bandligini ta’minlash, oilalar daromadini ko‘paytirish va kambag‘allikni qisqartirishga qaratilgan tizimli ishlar ham izchil davom ettirilmoqda. Ayniqsa, mehnat bozoridagi talabni o‘rganish, fuqarolarni zamonaviy kasblarga o‘qitish hamda ularni munosib ish o‘rinlariga yo‘naltirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Chunki, ortda qolgan 1,5 yilda muhtaram Prezidentimiz tomonidan tuman iqtisodiyotini yuksaltirish va kompleks rivojlantirish maqsadida 13 ta qaror va farmoyishlar imzolandi. Ularning barchasida eng ustuvor vazifa sifatida Bekobod tumanini “ishsizlik va kambag‘allikdan xoli hudud”ga aylantirish belgilab berilgan.

Buning natijasida tumanda bandlik borasida sezilarli ijobiy o‘zgarishlarga erishildi. Xususan, 2025-yil boshida ishsizlik darajasi 5,9 foizni tashkil etgan bo‘lsa, yil yakuniga kelib bu ko‘rsatkich 4,4 foizga tushirildi. Kambag‘allik darajasi esa bir yil avvalgi 9,8 foizdan 3,8 foizgacha kamaydi.

Ushbu natijalar, avvalo, aholining doimiy daromad manbaiga ega bo‘lishini ta’minlashga qaratilgan amaliy choralar samarasidir. 2026-yilda ham bu yo‘nalishdagi ishlarni yanada kuchaytirish maqsadida mavjud barcha resurs va imkoniyatlar safarbar etilmoqda. Yil davomida jami resurslar hisobidan qariyb 34 mingta ish o‘rni yaratish, 1700 ta oilani kambag‘allikdan chiqarish ko‘zda tutilgan.

Mehnat bozorining zamonaviy talablari esa fuqarolarning shunchaki ish bilan ta’minlanishini emas, balki bugun va kelajakda talab yuqori bo‘ladigan kasblarga ega bo‘li- shini taqozo etmoqda. Shu bois aholini kasb-hunarga o‘qitish tizimi ham bandlik siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biriga aylangan. 2026-yilning yanvar-iyul oylarida 754 nafar fuqaro vaucher tizimi asosida kasb-hunarga o‘qitilib, ularning bandligi ta’minlandi. Yil yakuniga qadar esa ushbu yo‘nalishda yana 1055 nafar fuqaroni o‘qitish va ish bilan ta’minlash rejalashtirilgan.

Eng muhimi, bandlik masalasiga kompleks yondashilayotgani natijasida aholining turli qatlamlari – xususan, xotin-qizlar va yoshlarning mehnat bozoridagi faolligini oshirish uchun ham keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Zero, har bir xonadonda barqaror daromad manbaining shakllanishi nafaqat oilaning iqtisodiy holatini yaxshilaydi, balki kambag‘allikni qisqartirishning eng samarali omillaridan biri bo‘lib xizmat qiladi.

Shu nuqtayi nazardan, tumanda xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, “Ayollar daftari”ga kiritilgan fuqarolarning bandligini ta’minlash hamda yoshlarni zamonaviy kasb va mutaxassisliklarga yo‘naltirib, ularning doimiy daromad manbaiga ega bo‘lishiga ko‘maklashish borasidagi ishlar ham izchil davom ettirilmoqda.

Xotin-qizlar faolligi — taraqqiyot poydevori

Bekobod tumanida xotin-qizlarning iqtisodiy faolligini oshirish, ularni barqaror daromad manbai bilan ta’minlash hamda shu orqali oilalarni kambag‘allikdan chiqarish borasida tizimli va manzilli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bugun tumanda olib borilayotgan amaliy ishlar har bir xotin-qizning mehnat bozori va tadbirkorlikda o‘z o‘rnini topishi, moliyaviy mustaqillikka erishishi hamda oilalar farovonligini ta’minlashga qaratilgani bilan alohida ajralib turadi.

Xususan, “Ayollar daftari” jamg‘armasi hamda qonunchilikda belgilangan manbalar hisobidan ehtiyojmand xotin-qizlarni manzilli qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha salmoqli natijalarga erishildi. Tizimli sa’y-harakatlar natijasida 1-toifadagi 2 161 nafar xotin-qizlar doimiy ish o‘rinlari va o‘zini-o‘zi band qilish orqali daromad manbaiga ega bo‘ldi. Shuningdek, 2-toifadagi 64 nafar xotin-qizlarga tadbirkorlik faoliyatini yo‘lga qo‘yish va kengaytirish uchun tijorat banklari orqali jami 1 milliard 559 million so‘m imtiyozli kredit mablag‘lari ajratildi. Uy-joy sharoitini yaxshilash maqsadida 3-toifadagi 4 nafar xotin-qizning ijara to‘lovlari qoplab berilgan bo‘lsa, 80 nafarining xonadoni to‘liq ta’mirlandi. Shu bilan birga, 4-toifadagi 1 365 nafar ayolga turli ko‘rinishdagi ijtimoiy yordamlar ko‘rsatildi va 5-toifadagi 2 175 nafar xotin-qizlar har tomonlama qo‘llab-quvvatlandi.

Tuman miqyosida xotin-qizlarning iqtisodiy faolligini oshirish va ularni tadbirkorlikka keng jalb etishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shu maqsadda o‘z biznesini tashkil etish va kengaytirish istagida bo‘lgan 622 nafar xotin-qizlarga tijorat banklari orqali imtiyozli kreditlar ajratilib, zarur moliyaviy ko‘mak ko‘rsatildi. Buning parallelligida, mahallalar kesimida tashkil etilgan o‘quv kurslarida 684 nafar xotin-qizlar mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan zamonaviy yo‘nalishlarda kasb-hunarga o‘qitildi.

Bu kabi choralar ayollarning doimiy daromad manbaini yaratishi va iqtisodiy mustaqilligini mustahkamlashida muhim poydevor bo‘lmoqda. Zero, ayollarni band qilish va ularga muqim daromad keltiruvchi manba yaratish — tumanda kambag‘allikni qisqartirish hamda har bir oila farovonligini ta’minlashning eng samarali va ustuvor omilidir.

Yoshlar bandligi – muhim masala

Bugungi kunda yoshlarning iqtisodiy faolligini oshirish, ularni daromadli ish o‘rinlari bilan qamrab olish hamda tadbirkorlik tashabbuslarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Tumanda istiqomat qilayotgan 39 ming 105 nafar yoshlarning bandligini ta’minlash va mehnat bozorida o‘z o‘rnini topishiga ko‘maklashish borasida tizimli hamda manzilli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Ayniqsa, alohida e’tibor va ko‘makka muhtoj yoshlar bilan ishlashda ijobiy ko‘rsatkichlarga erishildi. Xususan, “og‘ir” toifadagi 755 nafar ishsiz yoshlar 28 nafar rahbarlarga biriktirilib, ularning bandligi 100 foizga ta’minlandi. Ular orasidan 297 nafari doimiy ishga joylashtirilgan bo‘lsa, 186 nafariga mehnat qurollari va asbob-uskunalar ajratildi. Shuningdek, 93 nafari kasb-hunar va zamonaviy mutassisliklarga o‘qitildi, 61 nafari o‘zini-o‘zi band qildi, 68 nafari tartibli migratsiyaga yuborildi va 50 nafariga tadbirkorlik faoliyati uchun imtiyozli kreditlar ajratildi. Otaliqqa olingan 88 nafar yoshlardan 51 nafari ham muqim ish o‘rniga ega bo‘ldi.

“Sariq” toifadagi yoshlar bandligini ta’minlash borasida ham salmoqli natijalar qayd etildi. Ushbu toifadan 154 nafari doimiy ish o‘rinlariga joylashtirildi, 261 nafari kasb-hunarga o‘qitildi, 383 nafariga esa 9 milliard 575 million so‘mlik imtiyozli kredit mablag‘lari ajratilishi hisobidan bandligi ta’minlandi. Shu bilan birga, yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish yo‘nalishidagi 35 ta loyihaga 6,55 milliard so‘m imtiyozli kreditlar berilib, yangi ish o‘rinlari yaratildi.

Yoshlarning daromad manbalarini kengaytirishda agrar soha imkoniyatlaridan ham samarali foydalanilmoqda. Tegishli qaror asosida, 1 896 nafar yoshlarga 600 gektar yer maydonlari ajratib berildi. Xatlov natijasida jangovar sport turlari bilan shug‘ullanuvchi 540 nafar ishsiz yoshlar hamda muddatli harbiy xizmatdan qaytgan 203 nafar yigitlarning bandligini ta’minlash bo‘yicha alohida “yo‘l xaritalari” ishlab chiqildi. Shuningdek, tashqi migratsiyadan qaytgan 112 nafar yoshlar doimiy ish bilan qamrab olindi.

Kelajak bunyodkorlari bo‘lmish ta’lim muassasalari bitiruvchilarining bandligi ham e’tibordan chetda qolgani yo‘q. Maktab, texnikum va oliy ta’lim muassasalarini tamomlagan 1 378 nafar ishsiz yoshlarning nomma-nom ro‘yxati shakllantirilib, ularni mehnat bozoriga jalb etish choralari ko‘rilmoqda. Tumanda yoshlarning mehnat qilish, daromad topish hamda o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish bo‘yicha amalga oshirilayotgan bu kabi ishlar kambag‘allikni qisqartirish hamda aholi farovonligini oshirishga xizmat qiladi.

Mehnat qadr topgan yurtda farovonlik yuksaladi

Aholi bandligini ta’minlash, yangi ish o‘rinlari yaratish, daromadlarini oshirish va kambag‘allikni qisqartirish borasidagi sa’y-harakatlarning bosh maqsadi — insonlarning munosib hayot kechirishi uchun zarur sharoitlarni yaratishdir. Bu jarayonda nafaqat ish bilan ta’minlash, balki mehnat qilayotgan fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularning ijtimoiy farovonligini qo‘llab-quvvatlash ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu jihatdan, mehnat jamoalarida xodimlarning qonuniy manfaatlarini himoya qilish, munosib mehnat sharoitlarini yaratishga ko‘maklashish hamda ularning ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishida kasaba uyushmalarining o‘rni beqiyos. Bekobod tumanida ham turli tarmoqlarda faoliyat yuritayotgan kasaba uyushmalari tomonidan bu yo‘nalishda qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Ayni paytda tumandagi tarmoq kasaba uyushmalariga jami 160 ta tashkilotdagi 16 270 nafar xodim a’zo hisoblanadi. Jumladan, Ta’lim va fan xodimlari kasaba uyushmasi Bekobod tuman kengashiga 97 ta tashkilotdan 4 834 nafar, Davlat muassasalari va jamoat xizmati xodimlari kasaba uyushmasi Bekobod tumani kengashiga 11 ta tashkilotdan 920 nafar, Tibbiyot va farmatsevtika xodimlari kasaba uyushmasi Bekobod tumani kengashiga 16 ta tashkilotdan 3 200 nafar, Agrosanoat majmui xodimlari kasaba uyushmasi Bekobod tumani kengashiga esa 36 ta tashkilotdan 7 316 nafar xodim a’zo bo‘lgan.

Mazkur tarmoq kasaba uyushmalari tomonidan xodimlarning huquqiy himoyasini ta’minlash, mehnat muhofazasi va xavfsiz mehnat sharoitlarini yaratishga ko‘maklashish, ularning ijtimoiy manfaatlarini qo‘llab-quvvatlash borasida tegishli ishlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, xodimlarning sog‘lig‘ini tiklash va mustahkamlash maqsadida sanatoriy va sihatgohlarga yo‘llanmalar ajratilmoqda.

Xodimlarning mazmunli hordiq chiqarishi ham e’tibordan chetda qolmayapti. Jamoaviy tarzda tarixiy qadamjolarga sayohatlar, madaniy-ma’rifiy tadbirlar tashkil etilib, dam olish maskanlariga borish uchun imkoniyatlar yaratilmoqda.

(Davomi 4-sahifada...)

ASRLIK TARIX VA ISTIQLOL SHUKUHI

(...boshlanishi 3-sahifada)

Yozgi mavsumda esa xodimlarning farzandlarini bolalar oromgohlariga yuborish orqali ularning maroqli va mazmunli dam olishi ta’minlanmoqda. Bayram kunlari mehnat jamoalarida bayram dasturxonlari tashkil etilib, xodimlarga esdalik sovg‘alari topshirilayotgani ham ularga bo‘lgan e’tiborning amaliy ifodasidir.

Raqamlarga murojaat qiladigan bo‘lsak, 2025-yil davomida xodimlarning sog‘ligini tiklash maqsadida sanatoriylarga 201 ta, ularning farzandlari uchun yozgi sog‘lomlashtirish oromgohlariga 96 ta yo‘llanma berilgan. 2026-yilning bugungi kuniga qadar esa bu ko‘rsatkich sanatoriy yo‘llanmalari bo‘yicha 351 taga yetgan, bolalar oromgohlariga esa 67 ta yo‘llanma ajratilgan.

Ma’lumot o‘rnida shuni ta’kidlash lozimki, tumanning Do‘stlik mahallasida 5 gektar maydonda 200 o‘rinli zamonaviy sog‘lomlashtirish oromgohini barpo etish rejalashtirilgan. Kelgusida mazkur hududda sanatoriy tashkil etilib, aholi va mehnat jamoalari vakillarining sog‘lig‘ini tiklash hamda maroqli hordiq chiqarishi uchun yanada keng imkoniyatlar yaratiladi.

Zero, munosib mehnat va munosib daromad bilan bir qatorda, xodimning huquq va manfaatlari himoyalangan, sog‘lig‘i va ijtimoiy farovonligi e’tiborda bo‘lgan muhit ham inson qadrini ta’minlashning muhim omilidir. Bekobod tumanidagi kasaba uyushmalari faoliyati ham ana shu maqsadlarga xizmat qilmoqda.

Yangi Bekobod – ijodkorlar nigohida

Mustaqilligimizning 35 yilligi munosabati bilan Bekobod tumanida o‘tkazilgan bayram tadbirlari ma’naviy-ma’rifiy va madaniy yo‘nalishdagi mazmunli uchrashuvlar bilan yanada boyidi. Bayram kuni san’at va



adabiyot namoyandalariga e’tibor va ehtiromning yorqin ifodasi bo‘lgan qator tadbirlar tashkil etilib, ijod ahli uchun unutilmas lahzalarga boy bo‘ldi.

Zafar shaharchasidagi Madaniyat markazida O‘zbekiston Badiiy ijodkorlar uyushmasi a’zosi, taniqli fototasvirchi Sultonboy Dehqonovning “Yangi Bekobod – yangi manzillar” nomli shaxsiy fotoko‘rgazmasi ochildi. Ko‘rgazmadan muallifning 45 ta ijodiy ishi o‘rin olgan bo‘lib, ularda Yangi O‘zbekiston va Yangi Bekobodning obod manzillari, bunyodkorlik ishlari, kun qahramonlari, beg‘ubor bolalik hamda yurtimizning betakror tabiati o‘ziga xos badiiy nigoh bilan aks ettirilgan. Ayniqsa, “Yangi Bekobod” turkumidagi fotolavhalarda so‘nggi yillarda tumanda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli bunyodkorlik ishlari, yangilanayotgan mahallalar va zamonaviy qiyofa kasb etayotgan hududlar ta’sirchan fotohikoyalar orqali namoyon etilgan.

Bayramona ruhda o‘tgan tadbirda Bekobod tumani hokimi Z.Nizomiddinov hamda O‘zbekiston Badiiy



akademiyasi raisi, O‘zbekiston xalq rassomi Akmal Nur ishtirok etib, ko‘rgazma va undagi ijodiy ishlar yuzasidan o‘z fikr-mulohazalarini bildirdilar.

Shuningdek, bayram kuni tumanda yashab, samarali ijod qilib kelayotgan shoir va yozuvchilar bilan samimiy uchrashuv ham tashkil etildi. Unda O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi, Xalq shoiri, senator Sirojiddin Sayyid, O‘zbekiston xalq yozuvchisi Muhammad Ali, adabiyotshunos olim, professor Qozoqboy Yo‘ldoshev hamda professor Bahodir Karimov ishtirok etdilar. Uchrashuv davomida Abdusamad Jumaboyev, Muhiddin Mahkam, Mirzabek Sherbekov, Munira Eshonqulova va Muhayyo O‘roqovaga



O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasiga a’zolikka qabul qilinganliklarini tasdiqlovchi guvohnomalar tantanali ravishda topshirildi.

Ustoz ijodkorlar va olimlar yangi a’zolarni samimiy muborakbod etib, ularga mustahkam ilhom, sermahsul ijod va yangi adabiy yutuqlar tiladilar. Zero, adabiyot va san’at xalq ma’naviyati, tafakkuri va ruhiyatini yuksaltiruvchi beqiyos kuchdir. Bugun yangilanayotgan Bekobodning go‘zal manzaralari fototasvirlarda muhrlanayotgan bo‘lsa, uning bunyodkorlik ruhi va odamlar qalbidagi kechinmalari adabiyot orqali tarannum etilmoqda.

Shu ma’noda, bayram kuni o‘tkazilgan mazkur tadbirlar Bekobod tumanining yangi qiyofasi, bunyodkor xalqimizning mehnati va ijodkorlarning yurtga bo‘lgan mehrini uyg‘un aks ettirgan, ma’naviy ahamiyati yuksak voqealar sifatida yodda qoldi.

Yuksak tantana, xalq shukuhi va istiqlol shukronasi

Bayram kunining ma’naviy-ma’rifiy va madaniy tadbirlari ana shunday mazmunli voqealar bilan davom etib, kechga borib muhtasham bayram tantanasiga ulanib ketdi. Bekobod tumani markazi – Zafar shaharchasidagi Markaziy o‘yingohda O‘zbekiston Respublikasi Davlat Mustaqilligining 35 yilligi hamda Bekobod tumani tashkil topganining 100 yilligiga bag‘ishlangan tantanali bayram dasturi namoyish etildi.

Bayram shukuhi hali tadbir boshlanmasidan ancha avval Zafar shaharchasini qamrab oldi. Tuman markaziga uzoq-yaqindan: yondosh tumanlardan, Sirdaryo viloyatidan, poytaxtdan, hatto qo‘shni Tojikiston Respublikasidan yuzlab mehmonlar, nuroniylar, yoshlar, xotin-qizlar, bolajonlar, mehnat faxriylari va turli soha vakillari tashrif buyurdi. Maydon bayramona libosga burkanib, rang-ba-



rang bezaklar, hilpirayotgan bayroqlar va yangrayotgan kuy-qo‘shiqlar bilan yanada fayzli tus oldi. Odamlarning yuz-ko‘zidagi quvonch, bir-biriga bayram tilaklarini izhor etishi, bolajonlarning beg‘ubor shodligi bu kunning naqadar qadrli ekanini yaqqol namoyon etdi.

“Yagona Vatan, yagona xalq bo‘lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz” shiori ostida o‘tgan tantana o‘zining mazmuni, rang-barangligi va keng qamrovi bilan yig‘ilganlarda katta taassurot qoldirdi. Tantanali dastur Davlat Madhiyasi bilan boshlanib, istiqlol yillarida erishilgan yutuqlar, xalqimizning tinch va farovon hayoti, Bekobodning bir asrlik taraqqiyot



yo‘li hamda bugungi bunyodkorlik jarayonlarini o‘zida mujassam etgan sahna ko‘rinishlari bilan davom etdi.

Bayram davomida Bekobod tumani yosh sportchilari, tajribali murabbiylar hamda respublika va jahon chempionlari ishtirokida ko‘rgazmali chiqishlar ham namoyish etildi. Gimnastik mashqlar, akrobatik harakatlar, futbol, milliy kurash, kamondan otish va yosh bokschilarning



chiqishlari tomoshabinlarda katta taassurot qoldirdi. Ayniqsa, yosh sportchilarning mahorati va chaqqonligi ularning muntazam mashg‘ulotlari hamda ularga yaratilayotgan sharoitlar samarasini namoyon etdi.

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, bugun tumanda sportni rivojlantirishga qaratilayotgan e’tibor ham ana shunday iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash, ular uchun munosib mashg‘ulot sharoitlarini yaratish orqali yanada mustahkamlanmoqda.

Xususan, tuman markazidagi “Guliston” MFY hududida joylashgan markaziy o‘yingohda yoshlar uchun zamonaviy boks zali qurilishi yakunlanish arafasida. Qiymati 15 milliard so‘m bo‘lgan loyiha tadbirkorlik va homiylik mablag‘lari asosida amalga oshirilmoqda. 36×34 metr o‘lchamdagi asosiy zalda bir kunda 120 nafargacha yosh sportchi shug‘ullanishi mumkin. Majmuada kiyinish va yuvinish xonalari, shifokor hamda trenerlar xonalari, shuningdek, zamonaviy trenajyor zali ham tashkil etilmoqda.

Shu hududdagi 40×20 metr o‘lchamdagi sun’iy qoplamali sport maydoni ham homiylik asosida to‘liq ta’mirlanib, foydalanishga topshirildi.

“Qo‘shtamg‘ali” MFY hududidagi Toshkent viloyati Suv sport turlariga ixtisoslashtirilgan sport maktabining eshkak eshish bazasida esa 9,5 milliard so‘mlik loyiha doirasida keng ko‘lamli yangilanish ishlari olib borilmoqda. Zamonaviy trenajyor zali barpo etilib, mavjud binolar ta’mirlandi, sportchilar xavfsizligi uchun yerosti yo‘lagi tashkil etildi. Ayni paytda yotoqxona qurilishi davom etmoqda. Baza yangi qayiqlar va eshkaklar bilan ham ta’minlandi.

(Davomi 5-sahifada...)


(...boshlanishi 2-3-sahifalarda)

Bularning barchasi tumanda sport infratuzilmasini mustahkamlash, yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish va kelajakda respublika, Osiyo hamda jahon miqyosida yurtimiz sharafini munosib himoya qiladigan yangi chempionlarni tarbiyalashga xizmat qilmoqda.

Tantananing eng hayajonli lahzalaridan biri esa Bekobodning kelajakdagi qiyofasiga bag‘ishlandi. Sun’iy intellekt yordamida Bekobod tumani va markazi Zafar shaharchasining besh yildan keyingi ko‘rinishi namoyish etilib, bugun boshlangan bunyodkorlik ishlarining ertangi istiqboldagi natijalari ramziy tarzda ko‘rsatildi. Bu manzara maydonda yig‘ilganlarda katta qiziqish va hayrat uyg‘otib, “Yangi Bekobod” haqidagi ezgu orzularni yanada jonlantirdi.

San’atkorlarning Vatan, istiqlol va ona yurtga muhabbatni tarannum etuvchi dilbar kuy-qo‘shiqlari bayramga o‘zgacha fayz va shukuh bag‘ishladi. O‘zbekiston xalq artistlari Yodgor Sa’diyev, Farruh Zokirov, G‘ulomjon Yoqubov, Furqat Ashuraliyev, Elmurod Ahmedov, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artistlar Salohiddin Azizboyev, Oybek Hamroqulov hamda Ozoda Nursaidovalarning betakror ijrolari maydonda jam bo‘lgan minglab tomoshabinlarga ko‘tarinki kayfiyat ulashib, ularni Vatanga muhabbat, istiqlolga shukronalik va ezgu tuyg‘ular atrofida birlashtirdi.

O‘zbekiston Qahramoni, Respublika “Nuroniy” uyushmasi raisi, senator Sodiqjon Turdiyevning Bekobod tumani ahliga bayram tabrigi, O‘zbekiston xalq shoirlari va senatorlar Sirojiddin Sayyid va Mahmud Toirning yangi ijod namunalari, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi, xizmat ko‘rsatgan jurnalist Abdusaid Ko‘chimov va O‘zbekiston xalq yozuvchisi, Davlat mukofoti laureati Muhammad Alining yoniq dil so‘zlari bayram tantanasiga betakror ko‘tarinkilik bag‘ishladi.



Tantananing yana bir hayajonli va unutilmas lahzasi tun bag‘rini yoritgan shukuhli mushakbozlik bo‘ldi. Maydon uzra yog‘du sochgan rang-barang mushaklar, gulduros olqishlar va samimiy hayqiriqlar ostida tugallangan bu go‘zal kecha Bekobod osmonida porloq istiqbol hamda qalblardagi ezgu orzular ramzi kabi muhrlandi.

Shu tariqa, Bekobod tumanida Mustaqilligimizning 35 yilligi hamda qutlug‘ 100 yillik tarixga ega tuman yubileyi munosabati bilan o‘tkazilgan bayram tantanalari ko‘tarinki ruh, katta shodlik va unutilmas taassurotlar bilan yakunlandi. Ertalabdan boshlangan bunyodkorlik ishlari, yangi ijtimoiy obektlarning foydalanishga topshirilishi, san’at va adabiyot namoyandalari bilan uchrashuvlar hamda kechki bayramona konsert dasturi bir butun shukuhli ayyomga aylandi.

Bu shunchaki bayram emas, Bekobodning bir asrlik shonli tarixi, bugungi bunyodkorlik taraqqiyoti va ertangi kelajagiga berilgan yuksak baho bo‘ldi. Mustaqillik – o‘z tarixini anglash, bugunini bunyod etish va kelajagini o‘z qo‘li bilan yaratish imkonini bergan beqiyos ne’matdir. 100 yillik tarixga munosib bugun, 35 yillik istiqlolga munosib kelajak sari dadil odimlayotgan Bekobodning eng buyuk boyligi – uning ahil, mehnatkash va bunyodkor xalqidir.

Sarvinoz SHERALIYEVA,
bosh muharrir

MAZMUNLI UCH OY



YOZGI TA’TIL ZAVQI

Bekobod tumani “Kelajak” markazida o‘quvchi-yoshlarning yozgi ta’til davridagi bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish, ularning qiziqish va iste’dodlarini rivojlantirish maqsadida “Yoz o‘tmoqda soz” shiori ostida “Yoz–2026” chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilib, to‘garak mashg‘ulotlari hamda turli ma’naviy-ma’rifiy va sport tadbirlari tashkil etildi.

Markazda O‘zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 35 yilligiga bag‘ishlangan “Mustaqillik madhiyasi – bolalar nigohida” mavzusida ijodiy tanlov ham o‘tkazildi. Tanlovdan ko‘zlangan asosiy maqsad o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish ko‘nikmalarini mustahkamlash, shuningdek, ularda Vatanga muhabbat va vatanparvarlik tuyg‘ularini yanada yuksaltirishdan iborat bo‘ldi.

Mazkur tanlov “Kompyuter muhandisligi” to‘garagi rahbari S.Sobirjonov boshchiligida to‘garak a’zolari o‘rtasida tashkil etildi. Ishtirokchilar Mustaqilligimizning 35 yilligiga bag‘ishlab zamonaviy va mazmunli slayd taqdimotlarini tayyorlab, o‘z ijodiy ishlari bilan faol qatnashdilar.

Shuningdek, tuman Sport maktabi va hududiy bolalar kutubxonalari bilan hamkorlikda o‘quvchi-yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etishga qaratilgan turli tadbirlar o‘tkazildi.

To‘garak mashg‘ulotlari davomida “Topqir bolajon”, “Xotira mashqi”, “Topishmoq va maqollar aytish” kabi intellektual-ma’rifiy o‘yinlar, shuningdek, milliy o‘yinlardan “Arqon tortish” va turli sport musobaqalari tashkil etildi. Ayniqsa, milliy o‘yinlar bolalarda jamoaviylik, do‘stlik va o‘zaro hurmat kabi fazilatlarni shakllantirishga xizmat qildi.

Bundan tashqari, markazda “Kitob o‘qish” soati ham tashkil etildi. Unda to‘garak a’zolari markaz kutubxonasidagi badiiy adabiyotlar va ertak kitoblarini mutolaa qildilar. To‘garak rahbarlari o‘quvchilarning o‘qigan asarlari asosida suhbatlar uyushtirib, ularning kitobxonlikka bo‘lgan qiziqishini yanada oshirishga e’tibor qaratdilar.

Ta’til davrida “Men yoqtirgan ertak qahramonlari” mavzusida rasm chizish tanlovi o‘tkazildi. Suhbatlar jarayonida to‘garak a’zolari asar qahramonlari, voqealar rivoji va ertaklardan olinadigan hayotiy xulosalar yuzasidan o‘z fikrlarini bildirdilar.

O‘quvchilar ertaklar orqali yaxshilik va yomonlikni farqlash, odob-axloq me’yorlariga rioya qilish kabi muhim tushunchalarni yanada chuqurroq angladilar. Mavsumda “Rangli qog‘ozlardan ertak qahramonlarini yasash” mavzusida ijodiy mashg‘ulotlar ham tashkil etildi.

Bunday mazmunli tadbirlar o‘quvchi-yoshlarning yozgi ta’til davridagi bo‘sh vaqtini samarali tashkil etish, ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, kitobga mehrini oshirish hamda muntazam mutolaaga jalb etishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Oytojixon QODIROVA,
Bekobod tumani “Kelajak” markazi
To‘garaklar faoliyatini tashkil etish va monitoring qilish bo‘limi uslubchisi

EKOLOGIYA

“ZERO WASTE” — TOZA KELAJAK SARI

Bugungi kunda insoniyat o‘z tarixidagi eng jiddiy ekologik va iqlimiy sinovlarga duch kelmoqda. Iqlim o‘zgarishi bo‘yicha Hukumatlararo ekspertlar guruhining (IPCC) ma’lumotlariga ko‘ra, dunyo bo‘yicha 3,6 milliard kishi iqlim o‘zgarishlariga o‘ta ta’sirchan hududlarda yashamoqda. Ayniqsa, Markaziy Osiyo va Orolbo‘yi hududlarida havo haroratining ko‘tarilishi global ko‘rsatkichga nisbatan ikki baravar tezroq kechmoqda. So‘nggi 30 yil davomida mintaqamizda o‘rtacha yillik haroratning 0,5 darajaga oshgani har birimizni jiddiy fikrlashga va zudlik bilan harakat qilishga undashi lozim.

Bunday murakkab sharoitda an’anaviy “olish — ishlab chiqarish — tashlash” shaklidagi chiziqli iqtisodiyot modeli o‘zini oqlamay qo‘ydi. Endilikda dunyo hamjamiyati resurslarni asrab-avaylash va chiqindilarni minimallashtirishga qaratilgan doiraviy iqtisodiyot hamda “Zero Waste” konsepsiyasiga faol o‘tmoqda.

“Zero Waste”, ya’ni “nol chiqindi” g‘oyasi shunchaki chiqindi tashlamaslik emas, balki iste’mol madaniyatini tubdan o‘zgartirishga qaratilgan yondashuvdir. Uning asosini keraksiz va bir marta ishlatiladigan plastik hamda qadoqlash vositalaridan imkon qadar voz kechish, ortiqcha narsalarni xarid qilmaslik, mas’uliyatli va oqilona iste’molga o‘tish, buyumlarni tashlab yuborish o‘rniga ta’mirlash va qayta foydalanish, qog‘oz, shisha, metall va plastik kabi xomashyolarni qayta ishlashga topshirish, organik va oziq-ovqat chiqindilarini esa kompostlash orqali foydali o‘g‘itga aylantirish kabi tamoyillar tashkil etadi.

Ushbu yondashuvning amaliyotga tatbiq etilishi natijasida poligonlarda to‘planadigan chiqindilar hajmini kamaytirish, atrof-muhit ifloslanishining oldini olish, havo va suv musaffoligini ta’minlash imkoniyati kengayadi. Zero, tabiatga munosabatni o‘zgartirish, avvalo, kundalik odatlarimizni qayta ko‘rib chiqishdan boshlanadi.

Mamlakatimizda ham ekologik barqarorlikni ta’minlash va “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi doirasida atrof-muhitni muhofaza qilish, suv resurslarini tejash va yashil hududlarni kengaytirish bo‘yicha keng ko‘lamli loyihalar amalga oshirilmoqda.

Ma’lumotlarga ko‘ra, mamlakatimizda yiliga o‘rtacha 6,8 million tonna maishiy chiqindi hosil bo‘ladi. Ilgari bu chiqindilarning aksariyati poligonlarda to‘planib yotgan bo‘lsa, bugun vaziyat bosqichma-bosqich o‘zgarib bormoqda. Hozirgi kunda respublikamizda aholini sanitariya tozalash xizmatlari bilan qamrab olish darajasi 90 foizdan oshdi. Chiqindilarni qayta ishlash ko‘rsatkichi esa 38,1 foizga yetdi. Mamlakatimiz bo‘ylab 300 dan ortiq chiqindilarni qayta ishlash korxonasi faoliyat yuritmoqda.

E’tiborlisi, har bir viloyatda joylashuvi qulay bo‘lgan poligonlar maxsus Eko-sanoat zonalariga transformatsiya qilinmoqda. O‘z resursini o‘tab bo‘lgan poligonlar esa bosqichma-bosqich yopilib, ularning o‘rnida terak, tut va zarang kabi daraxtlardan iborat yashil hududlar barpo etilmoqda. Bunday amaliy ishlar ekologik muhitni yaxshilash bilan birga, chiqindilardan oqilona foydalanish va qayta ishlash imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Ekologik islohotlarning muvaffaqiyati nafaqat davlat organlari faoliyatiga, balki har bir fuqaroning ekologik madaniyatiga ham bog‘liq. Bu borada O‘zbekiston Ekologik partiyasi hamda “mahalla yettiligi” hamkorligida jamoatchilik nazorati yo‘lga qo‘yilgan. Joylarda noqonuniy chiqindixonalarning oldini olish, sanoat korxonalarida oqova suvlarni tozalash va havo ifloslanishini kamaytirish bo‘yicha reydlar hamda monitoringlar o‘tkazilmoqda. Yoshlar va xotin-qizlar o‘rtasida “Ko‘ngil ekologiyasi”, “Toza muhit — sog‘lom kelajak” kabi aksiyalar o‘tkazilib, ekologik madaniyatni yuksaltirish va “Zero Waste” g‘oyalarini keng targ‘ib etishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli ekologik islohotlar va global “Zero Waste” harakati bir-birini to‘ldiruvchi yagona maqsadga — musaffo tabiatni, toza havoni va barqaror kelajakni kelgusi avlodlarga bezavol yetkazishga xizmat qiladi. Zero, tabiatni asrash faqat bugunning emas, balki kelajak avlodlar oldidagi muhim mas’uliyatimizdir. Tabiat bilan uyg‘un yashash, resurslardan oqilona foydalanish va chiqindilarni kamaytirish esa har birimizning kundalik hayotimizdan boshlanadigan ezgu qadriyatdir.

Sevinch RAHIMOVA,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar yo‘nalishi talabasi

EHTIROM

EL-YURT E’TIROFI — YUKSAK QADRIYAT

Mustaqillik — xalqimizning asriy orzu-intilishlarini ro‘yobga chiqargan, yurtimiz taraqqiyoti va farovonligi uchun keng imkoniyatlar yaratgan buyuk ne’matdir. Shu yillar davomida Vatan ravnaqi, xalq farovonligi va jamiyat taraqqiyoti yo‘lida fidokorona mehnat qilgan insonlarning xizmatlari munosib qadrlanib kelmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining 35 yilligi” esdalik nishoni bilan taqdirlash to‘g‘risidagi Farmoni ham yurtimiz rivojiga munosib hissa qo‘shib kelayotgan yurtdoshlarimizga bo‘lgan yuksak hurmatning ifodasidir.

Mazkur Farmonga asosan Bekobod tumanida ham Mustaqillikning 35 yilligi munosabati bilan tantanali taqdirlash marosimi bo‘lib o‘tdi. Unda turli sohalarda samarali mehnat qilayotgan 118 nafar tumandoshimizga esdalik nishonlari topshirildi.

Taqdirlanganlar orasida ko‘p yillar davomida halol mehnati bilan el-yurt hurmatiga sazovor bo‘lgan faxriylar, turli kasb egalari, ishlab chiqarish va ijtimoiy soha vakillari, shuningdek, o‘zining tashabbuskorligi va intilishi bilan tengdoshlariga namuna bo‘lib kelayotgan yoshlar ham bor.

Tadbirda ta’kidlanganidek, yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi yo‘lida qilingan har bir ezgu mehnatning o‘ziga xos o‘rni bor. Ustozning ta’limi, shifokorning xizmati, ishchining mashaqqatli mehnati, tadbirkorning tashabbusi, dehqonning zahmati — bularning barchasi Vatan ravnaqiga qo‘shilayotgan munosib hissadir.

Ayniqsa, faxriylarning ko‘p yillik mehnat faoliyati yosh avlod uchun ibrat maktabi bo‘lsa, yoshlarning bugungi intilishi va tashabbuslari yurtimizning yorqin kelajagiga ishonch uyg‘otadi.

Tantanali marosimda esdalik nishonlari o‘z egalariga topshirilar ekan, bu e’tibor ularning mehnatiga bildirilgan hurmat va kelgusidagi faoliyatiga berilgan rag‘bat sifatida qayd etildi.



Zero, Vatan ravnaqi yo‘lida sidqidildan xizmat qilgan insonlarni qadrlash — xalqimizga xos ezgu fazilatlardan biridir. Mustaqillikning 35 yilligi munosabati bilan o‘tkazilgan ushbu marosim ham ana shu qadriyatlarning amaliy ifodasi bo‘ldi.

Akrom MAMADALIYEV

YANGI O‘QUV YILI — YANGI IMKONIYATLAR



“Yagona Vatan, yagona xalq bo‘lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz” shiori ostida mamlakatimizda yangi o‘quv yili boshlandi. Bekobod tumanidagi 60 ta umumta’lim maktabida 2026/2027-o‘quv yilining ilk kuni “Birinchi qo‘ng‘iroq” tadbirlari bilan tantanali kutib olindi.

Bu yil tuman maktablarining 1-sinflariga 3 342 nafar o‘quvchi qabul qilindi. Maktab ostonasiga ilk bor qadam qo‘ygan jajji o‘g‘il-qizlar uchun yangi o‘quv yilining birinchi kuni unutilmas taassurotlarga boy bo‘ldi. Ularning quvonchiga O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan taqdim etilgan sovg‘alar ham qo‘shilib, bayramona kayfiyat yanada ko‘tarildi.

Tadbirlar davomida mamlakatimizda ta’lim sifatini oshirish, yosh avlodga zamonaviy bilim va ko‘nikmalar berish, pedagoglarning kasbiy mahoratini yuksaltirish, o‘quvchilarning iqtidor va salohiyatini ro‘yobga chiqarish borasida amalga oshirilayotgan ishlar haqida so‘z yuritildi. Shuningdek, davlatimiz rahbarining yangi o‘quv yili munosabati bilan o‘quvchilar, ustoz va murabbiylarga yo‘llagan bayram tabrigi o‘qib eshittirildi.

Yangi o‘quv yilini yanada ko‘tarinki ruhda boshlashga Bekobod tumanidagi ta’lim muassasalarida yaratilayotgan zamonaviy sharoitlar ham xizmat qilmoqda. Prezidentimiz rahnamoligida ta’lim sohasiga qaratilayotgan e’tibor samarasi o‘laroq, tumanda 150 milliard so‘mdan ortiq mablag‘ hisobidan 10 ta maktabgacha ta’lim tashkiloti va 5 ta umumta’lim maktabida keng ko‘lamli qurilish-ta’mirlash va obodonlashtirish ishlari amalga oshirildi.

Bu yangilanishlarning yorqin namunalaridan biri — tuman markazida joylashgan 6-umumiy o‘rta ta’lim maktabidir. 1977-yilda tashkil etilgan mazkur ta’lim maskani avval 840 o‘rinli bo‘lib, unda o‘zbek va rus tillarida ta’lim berib kelingan. Maktab Mustaqilligimizning 35 yilligi munosabati bilan tubdan rekonstruksiya qilinib, 22 milliard so‘m mablag‘ evaziga 1 180 o‘rinli, zamonaviy ta’lim maskaniga aylantirildi.

Bugun maktab o‘quvchilari zamonaviy, yorug‘ va qulay xonalarda ta’lim olish imkoniyatiga ega. Bu esa ta’lim jarayonini sifatli tashkil etish, o‘quvchilarning fanlarni chuqur o‘zlashtirishi, bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazishi va o‘z qobiliyatlarini namoyon etishi uchun yanada keng imkoniyatlar yaratadi.

Darhaqiqat, zamonaviy maktab — shunchaki bilim beriladigan maskan emas. U yosh avlodning dunyoqarashi shakllanadigan, orzu-maqsadlari qanot yozadigan, mustaqil fikrlash va hayotga tayyorgarlik ko‘nikmalari qaror topadigan muhim tarbiya va ma’rifat o‘chog‘idir. Shu bois yangi o‘quv yilida ta’lim sifatini oshirish, pedagoglarning salohiyatini yuksaltirish, o‘quvchilarning bilimga bo‘lgan qiziqishini rag‘batlantirish bilan bir qatorda, ular uchun zamonaviy va munosib shart-sharoitlar yaratish muhim vazifa bo‘lib qolmoqda.

Bekobod tumanida yangi o‘quv yilining ana shunday yangilanishlar, ezgu maqsadlar va katta rejalar bilan boshlangani esa kelajak avlod ta’limi yo‘lida amalga oshirilayotgan ishlarning izchil davom etayotganidan dalolatdir.

Yangi o‘quv yili — yangi marralar, yangi orzular va yangi imkoniyatlar davri. Uning ilk qo‘ng‘irog‘i minglab o‘quvchilarni bilim sari, ustozlarni yangi yutuqlar sari chorlaydi.

Kamoliddin PIRNAZAROV,
Bekobod tumani maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi boshlig‘i

PEDAGOG MINBARI



BILIM SARI ILK QADAM

Yangi o‘quv yilining boshlanishi — qalblarga quvonch, yuzlarga tabassum, ko‘ngillarga esa yangi orzu va maqsadlar baxsh etadigan unutilmas ayyom. Bekobod tumanidagi 45-umumta’lim maktabida ham 2026/2027-o‘quv yilining ilk qo‘ng‘irog‘i ko‘tarinki kayfiyatda yangradi.

Bu yil maktab 50 nafar yangi o‘quvchini o‘z bag‘riga qabul qildi. Ilk bor maktab ostonasiga qadam qo‘ygan jajji o‘quvchilarning hayajon va quvonchga to‘la nigohlari bayramga o‘zgacha fayz bag‘ishladi.

Tadbir davomida Vatan, maktab, ustoz va ilm-ma’rifatni tarannum etuvchi kuy-qo‘shiqlar, she’rlar hamda sahna ko‘rinishlari namoyish etildi. O‘quvchilarning mazmunli va rang-barang chiqishlari tadbir ishtirokchilarida katta taassurot qoldirdi.

Darhaqiqat, Bilimlar kuni shunchaki yangi o‘quv yilining boshlanishi emas, balki kelajak sari tashlangan muhim qadamdir. Zero, bugun maktab ostonasidan kirib kelayotgan har bir o‘quvchi — yurtimizning ertangi kuni, Vatanimizning munosib farzandi va kelajak bunyodkoridir.

Yangi o‘quv yilida o‘quvchilarning puxta bilim olishi, o‘z iqtidor va qobiliyatlarini namoyon etishi, fan olimpiadalari hamda turli tanlovlarda munosib natijalarga erishishi uchun barcha imkoniyatlarni ishga solish maqsad qilingan.

Ilm yo‘li — nurli yo‘l. Ushbu yo‘lda tashlangan har bir qadam kelajakdagi ulkan zafarlarga poydevor bo‘lsin. Yangi o‘quv yili barcha o‘quvchilar, ustoz va murabbiylar uchun muvaffaqiyatlarga boy kelsin!

Muqaddam PARDABOYEVA,
45-umumta’lim maktabining
boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

AMALIY NAZORAT

MAVSUM TAYYORGARLIGI

Paxta yig‘im-terimi mavsumini uyushqoqlik bilan o‘tkazish, hosilni sifatli qabul qilish va hisob-kitoblarning shaffofligini ta’minlashda tayyorgarlik jarayonlarining puxta tashkil etilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu maqsadda Bekobod tuman prokuraturasi hamda viloyat prokuraturasi 11.1-bo‘lim prokurori Sh.Ro‘ziyev tomonidan tumandagi “Max Green” MChJga qarashli paxta qabul qilish maskanlarining mavsumga tayyorgarlik holati o‘rganildi.

O‘rganish davomida, avvalo, hududdagi paxta terish texnikalari hamda ularga biriktirilgan tirkamalarning texnik sozligi ko‘zdan kechirildi. Negaki, hosilni daladan qabul qilishgacha bo‘lgan jarayonda texnikalarning soz va shay holatda bo‘lishi mavsumning uzluksiz va samarali kechishida muhim omillardan biridir.

Shuningdek, paxta qabul qilish maskanlarida hosilni aniq tortish va hisobga olish masalasiga ham alohida e’tibor qaratildi. Jumladan, mavjud tarozilarning “e-tarozi” tizimiga ulanganlik holati o‘rganildi. Mazkur tizimdan foydalanish paxta topshirish va qabul qilish jarayonida hisob-kitoblarning aniqligi hamda shaffofligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, qabul punktlaridagi laboratoriya jihozlarining holati, ularning belgilangan talablarga muvofiqligi va sertifikatlanganligi ham ko‘rib chiqildi. Chunki qabul qilinayotgan paxtaning sifat ko‘rsatkichlarini to‘g‘ri aniqlash hosil qiymatini belgilash va ishlab chiqaruvchi manfaatlarini ta’minlashda muhim o‘rin tutadi.

Paxta mavsumi — qishloq xo‘jaligi yilining eng mas’uliyatli jarayonlaridan biri. Shu bois qabul maskanlari, texnika va uskunalarning mavsumga shayligi, hisob-kitoblarning aniq yuritilishi hamda sifat nazoratining talab darajasida tashkil etilishi muhim sanaladi.



O‘rganish jarayonlari ham ushbu yo‘nalishdagi ishlarni izchil tashkil etish, mavjud kamchiliklarni barvaqt aniqlash va mavsumni tartibli hamda samarali o‘tkazish uchun zarur choralarni ko‘rishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

Bunyod TURSUNALIYEV,
Bekobod tumani prokurorining yordamchisi

MULOHAZA

O‘QIGAN QACHON SHAHAR OLIB BERADI – QOLIPDAN QANDAY VOZ KECHILADI?

Xalqimiz orasida antiqa va ko‘ngilga xush yoqmaydigan bir ibora bor. “Kitob o‘qib, shahar olarmiding?” Daqyonusdan qolgan bu stereotip kitob ziyosiga esh bo‘lmagan olomonning boshida ko‘p yillar toshdek mustahkam qotib qolgan. Tabiiyki, bu o‘z-o‘zidan yuz bermagan. Bir davr bo‘ldiki, o‘qigan yetarli qadr topmadi, o‘qitganning esa mashhur qiziqchimiz kinoya bilan aytganidek, maqomi traktorchinikidan ham tushib ketdi.

Boz ustiga, ishlab turgan, katta kitoblar resursiga ega kutubxonalar tizimi zavol topdi. Mamlakatda faoliyat yuritgan bir necha ming kutubxonachilar – ma’naviyat tarqatuvchilarning maoshi juda past darajaga tushib ketdi.

Aslida kitoblar iqtisodiyot uchun milliardlik bozor edi. Ammo tuman markazlaridagi kitob do‘konlari, kioskalargacha yo‘q qilindi, aniqrog‘i, maishiy buyumlar sotadigan savdo shoxobchalariga aylantirildi. Alifboning o‘zgarishi esa shundoq ham ildiz ota boshlagan muammoni yanada chigallashtirdi. Katta avlod lotincha o‘qiy olmadi, kichigi esa kirillcha. Dard ustiga chipqon deganday, bu ham kitob va gazeta savdosiga halokatli ta’sir etdi. Oxir-oqibat butun boshli bir avlodni boy berdik.

Dunyoda geosiyosiy raqobat bilan birga, tafakkur uchun, texnologiyalar uchun kurash tobora avj olayotgan hozirgi murakkab bir sharoitda o‘qimagan bolaning o‘qigandan qanday farqi borligini bilib olish qiyin emas. Shu ma’noda kitobxonlik – har qanday taraqqiyotning bosh belgisiga aylandi.

Masalan, oxirgi yillarda jadal rivojlanayotgan Xitoyda aholining haftalik o‘rtacha kitob o‘qish vaqti 8 soat 27 daqiqani, AQSHda esa 7 soatni tashkil qiladi. Germaniyada katta yoshli aholi yiliga o‘rtacha 48 ta kitob o‘qiydi. So‘nggi yillarda axborot texnologiyalari sohasida revolyutsiya qilgan hindistonliklar esa yilda 16 ta kitob mutolaa qilarkan. Bizda esa bu raqam atigi bittani tashkil qilmoqda. Millatimizning to‘liq hur, farovon yashashdek ushalmay kelayotgan asriy orzu-umidlarini faqat kitob o‘qish, ilm olish orqaligina amalga oshirish mumkinligi inkor etib bo‘lmas haqiqatga aylangan bir davrda shu hol... Bugun iqtisodi o‘ta rivojlangan davlatlarga qaram bo‘lmay desak, arzon ishchi kuchi yetishtirib beradigan o‘lkaga aylanib qolishni istamasak, har birimiz har kuni o‘qishimiz kerak.

Men “Dunyo mamlakatlari” kitobini yozib, bir xulosaga keldim: barcha



mamlakatlarning tanazzuli va fojiasining tub ildizida elning yalpi savodsizligi, qo‘li kitob ko‘rmasligi va tor fikrlaydigan rahbarlari davlat siyosatini yuritishi yotarkan.

Bugun xalqimizda jinoyatchilik, agressiya ortib ketayotgani, yaqin qarindoshlarning bir-biriga oqibatsizlashib borayotgani, millatni zumda sotishi mumkin bo‘lgan vatangadolar ko‘payotganining sabablari haqida o‘ylayapmiz. Nazarimda, buning javobi ham ilmsizlik, kitob o‘qimaslikka borib taqaladi. Chunki kitob o‘qish, adabiyotga oshnolik insonda “ijtimoiy kognitsiya”ni, ya’ni boshqalarning his-tuyg‘ularini tushunish va empatiya qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

Yaxshiki, so‘nggi yillarda kitobxonlik madaniyatini yuksaltirishga juda katta e’tibor berilmoqda. Masalan, 2017-yilning 12-yanvar kuni “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish bo‘yicha” farmoyish qabul qilindi. “Kitob o‘qishni beshikdan boshlash kerak” degan g‘oya ilgari surildi. Shu tariqa kitob o‘qish shunchaki sevimli mashg‘ulot emas, balki milliy o‘zlikni anglash vositasi va kundalik madaniyatning ajralmas qismiga aylantirish maqsadi qo‘yildi. Chunki O‘zbekiston faqat iqtisodiy va texnologik modernizatsiya qilish bilan to‘liq yangilanib qolmas edi. Uni ma’naviy va mafkuraviy jihatdan bir necha pog‘ona ko‘tarmasdan, kun tartibini tugal deya olmaymiz.

Bunday harakatlarning natijasi ko‘p kuttirmadi. Oxirgi o‘n yilda nashriyotlar soni 5,5 barobar oshib, 118 tadan 652 taga yetdi. Matbaa korxonalari esa 1 804 tadan oshdi. Mamlakat miqyosida kitob do‘konlari soni 712 taga yetdi.

Yozuvchilar uyushmasi huzurida tashkil etilgan “Ijod” jamoat fondi tomonidan har yili ko‘plab yozuvchi va shoirlar, ayniqsa, yosh ijodkorlarning birinchi kitoblari ko‘p ming nusxada nashr etilmoqda. Sovrin jamg‘armasi katta bo‘lgan turli kitobxonlik tanlovlari o‘tkazilyapti, kitobxonlar qimmatbaho yutuqlarni qo‘lga kirityapti. Bu yil ilk bor “Yosh kitobxon” tanlovi g‘oliblari bosh sovrinni shaxsan Prezident qo‘lidan qabul qilib oldi. “Milliy kitobxonlik harakati”ning joriy yildan ko‘lam va salmog‘i yana-da kengaydi: Bosh mukofot egasi 50 ming dollargacha pul olish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Ilk bor davlat tomonidan yozuvchilar va tarjimonlarga to‘g‘ridan to‘g‘ri grandlar ajratila boshlandi. Kitobxonlik madaniyatini ommalashtirishda xususiy sektor, jamoat tashkilotlari va davlat hamkorligi yo‘lga qo‘yildi.

Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi ijtimoiy foydali va juda talabgir bo‘lgan katta ma’rifiy loyihalarga kirishdi. “So‘z” kabi avval hech uchramagan dasturlar aks-sadosi olis qishloqlargacha bormoqda, ijodiy shaxslarni birlashtiruvchi ijobiy hamjamiyatga aylanmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 15-yanvardagi “Kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va aholi o‘rtasida kitob o‘qishga qiziqishni oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori ham ijodkorlar tomonidan juda iliq kutib olindi.

Millatning har fuqarosiga yiliga bitta kitob kamligidan yozg‘irib turgan edik, qarorda 2030-yilga borib aholining kitobxonlik darajasini yiliga o‘rtacha 10 ta kitobga ko‘tarish vazifasi qo‘yildi, choralar belgilandi.

Yoshlar agentligi huzurida Kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish jamg‘armasi tuzildi. “Iste’dodli muallif” kabi katta loyihalar joriy etilib, qalami o‘tkir, katta ijodiy salohiyatga ega yoshlarga turli mayda tashvishlar bilan chalg‘imasdan ijod qilish uchun qulay sharoitlar yaratib berildi.

Joriy yildan boshlab respublika byudjetidan Yoshlar ishlari agentligiga kitoblarni tarjima qilish, nashrga tayyorlash va chop etish xarajatlari uchun har yili ajratiladigan mablag‘lar miqdorini 20 milliard so‘mga yetkazish belgilandi.

Prezident imzolagan hujjat, shubhasiz, muhim yo‘lko‘rsatkich bo‘ldi. Hududlar bo‘yicha kitob sotuvi va kutubxona tashriflari asosida Kitobxonlik indeksining joriy etilishi, “Bir kunda bir sahifa” nomli umummilliy onlayn tashabbusning yo‘lga qo‘yilishi buning isboti deyish mumkin. Davlat xizmatchilari uchun “Kitob o‘qish soati”ni tashkil etish, katta-kichik barcha idoralarida “kitob burchaklari”ni yaratish ham o‘zini oqlaydigan tashabbus bo‘ldi.

Yana nimalar qilish kerak?

Bozor qonuniyatiga ko‘ra, yaxshi kitoblarning sof reklamasini yo‘lga qo‘yish vaqti allaqachon kelgan. 30 yil bo‘ldiki, biror telekanalda biror o‘qishga arzirli kitobning reklamasini ko‘rganimiz yo‘q. Ekranga olib chiqish kamida uyatsizlik hisoblangan matohlardan tortib, sifati kafolatlanmagan dorilar, sog‘liqqa zarar ichimliklargacha reklama qilinayotgan bir vaqtda, biz hazrat Navoiy yohud Qodiriy bobomizning shoh asarlarini reklama qilishni o‘zimizga ep bilmaydigan iste’molchiga aylandik.

Yaqinda bir bola “Kitobingizni o‘qimoqchiman, lekin qimmat ekan. Shunga, deylik 10 oyga 100 mingdan to‘lab bermoqchiman, rozi bo‘lsangiz”, deb yozdi. Ko‘rinyaptiki, o‘qishga ishtiyoqi katta yangi avlod o‘sib kelyapti. Ammo ba’zan kitoblar narxi balandlik qilishi ham bor haqiqat. Shunday vaziyatlar uchun kam foizli kreditlar berish haqida ham o‘ylab ko‘rsa bo‘lar balki. Bu yechim ham yillar o‘tgach foydali sarmoya bo‘lganini isbotlaydi, nazarimda.

Bugun respublikamiz miqyosida jami 17 467 ta kutubxona bo‘lib, ularning umumiy fondi 89 million kitobni tashkil qiladi. Ulardan unumli foydalanish, targ‘ib qilish choralarini qaytadan ko‘rib chiqish zarurati bor bugun. Shuningdek, so‘nggi yillarda paydo bo‘lib borayotgan xususiy kutubxonalar tarmog‘ini (hozirda 80 ta) har jihatdan qo‘llab-quvvatlash, ularga imtiyozlar yaratish zarur.

O‘qish – tafakkurni kengaytiruvchi va jamiyatda qotib qolgan stereotip-qarashlarni vayron qiluvchi eng ta’sirchan qurol, undan to‘g‘ri foydalanishimiz kerak. Muhimi, kitob o‘qish ko‘r-ko‘rona, zo‘rma-zo‘raki majburiyatga aylanib qolmasligi, balki u zavqlanish, go‘zal tuyg‘ularni va chin insoniy fazilatlarni sayqal toptirish vositasiga aylanishiga erishish kerak. Himmati bor, xalqning ko‘zini ochish istagida bo‘lgan tadbirkorlarimiz har bir qishloqda kitob do‘koni, kutubxona ochishi, iml ahliga homiylik qilishni o‘ziga sharaf, burch deb bilishiga erishish esa bizni iste’molchi jamiyatdan haqiqiy millatsevar va ziyoli elga aylantirardi. Ana shunda bunday yurt avlodi esa nafaqat shahar, balki butun dunyoni olib beradi sizga.

Laziz RAHMATOV,
Siyosiy fanlari bo‘yicha falsafa doktori

MUTOLAA ZAVQI

OLIM TOSHBOYEV – “ULTONTOZ”

Bu romanni men tili va ko‘targan mavzusi jihatidan Tog‘ay Murodning “Otamdan qolgan dalalar”iga o‘xshatdim. Tog‘ay Murod asosiy fokusni yurtga bostirib kelgan, xalqning boshiga balo yog‘dirgan mustamlakachilar va ularning asl yer egalariga qilgan adolatsizliklariga qaratadi.

Olim Toshboyev esa ana shu mustamlaka zamonida to‘ng‘izlarga qo‘shilib o‘zimiznikilar o‘z ildizimizni yeb bitirgani, shu yurtning bolalari o‘z millatdoshlarini qanday xor qilganini ko‘rsatib beradi. Buni xalqning yurak-yuragiga singib ketgan “Alpomish” dostoni va xalqning jozibador tili bilan yanada chuqurroq tushuntiradi.

Dostonda Ultontoz Alpomishning yo‘qligidan foydalanib, yurtni egallab olgan, odamlarni qul qilgan, soxtakor va ezgu hislardan yiroq qulvachcha. Muallif romanda bu obrazni zamonaviylashtiradi va uni individual bir shaxsdan umumiy illat darajasiga ko‘taradi.

Asardagi Ultontoz shunchaki jismoniy shaxs sifatida tasvirlanmaydi. Ultontozga tegishli xususiyatlar ya’ni hokimiyatparastlik va soxtalik, o‘zinikini ko‘rolmaslik, o‘ziga munosib bo‘lmagan kursilarni egallash, iste’dodsizlikni zo‘ravonlik ortiga yashirish kabilarni o‘zida jamlagan jamiyatning katta bir bo‘lagiga tegishlidir.

Ular millat ma’naviyatini, tilini, dinini va minglab yillik qadriyatlarini o‘zining shaxsiy manfaatlari evaziga osonlikcha qurbon qila oladigan toifadir. Buni yozuvchi 1 km aylanib o‘tish sovet ishchilarining vaqtini o‘g‘irlayapti deb katta qabristonning o‘rtasidan yo‘l o‘tkazgan obrazlar bilan aniq-tiniq ochib bergan.


Keyin o‘ylab qoldim, bizda ham bunday qabristonlar bor. Biroz aylanib o‘tsa bo‘ladigan joyga qabristonning qoq o‘rtasidan buzib yo‘l ochishgan. Endi bu kitobdan keyin bunday ishlarni cho‘chqalarga hamtovoq “ultontozlar” qilganini, qilganda ham ongli va maqsadli bajarganini yaxshi bilaman.

Ana shu kabi biladiganlaringiz anchagina bo‘lgani uchun ham bu asarni shunchaki tarixiy yoki maishiy asar demagan bo‘lardim. Uni millatning o‘tmishi va bugunini tutashtirib turuvchi, har bir davrda uyg‘oq bo‘lishga, “ultontozlar”dan ehtiyot bo‘lishga chorlovchi badiiy-falsafiy ogohlantirish desa bo‘ladi.

Asar bizga shuni anglatadiki, har qanday mustabid tizim yoki adolatsizlik o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmaydi. Unga jamiyatning loqaydligi, jim turishi yo‘l ochib beradi. Yurtga Ultontozlarning hukmron bo‘lishiga Alpomishlarning “uyqusi” sabab.

Bundan tashqari biz o‘tgan asrda boshimizdan kechirgan qatag‘onlar, sovet tuzumining inson shaxsini maydalashga qaratilgan qora mashinasi qanday ishlaganini, qanday qilib “o‘zimiznikilar”dan ultontozlar yasalganini ko‘ramiz.

Olim Toshboyevning “Ultontoz” romani faqat o‘tmishni eslatish bilan chegaralanmaydi. Bugungi zamon o‘quvchisiga ertangi kun uchun hushyorlik darsini o‘tadi. Yurtimizda hamisha Alpomishlar g‘olib bo‘lishi, munosiblar munosib joyda turishi uchun har birimiz o‘z ichimizdagi kichik bo‘lsada ultontozlik illatlariga qarshi kurashishimiz kerakligi haqidagi g‘oya asarning eng asosiy maqsadi.



Agar siz milliy ruh, falsafiy tahlil va mifologik qorishiqa qurilgan jiddiy adabiyot tarafdori bo‘lsangiz, bu asar o‘qishingiz va javoningizda turishi shart bo‘lgan kitoblardan biri ekanligiga shubham yo‘q. Agar ishonmasangiz o‘zingiz o‘qib ko‘ring...

Muhiddin NIDO

HIKOYA

YAKSHANBA KUN KAMPIRCHA...

Qachonlardir uning ketmoni uchgandi. Urush qo‘pgan zamon edi. Qishloq kezib, qo‘shiq kuylardi. Uni ramaqijon, lekin joni qattiq, ziqna va shang‘i Matryona Kondakova yetaklab yurardi. U Matryona Kondakovani xotinjon deb atardi.

Ko‘pincha u qishloq do‘koni po‘saxonasiga o‘tirvolib, qo‘shqator barmoqbosdili rus garmonini chiqazar, tizzasiga qo‘yvolib hafsala bilan uzoq sozlar, yelkasidagi tasmani to‘g‘rilab olardi... U, albatta, artist edi. Tinglovchilarni shaylar, ko‘nglini iydirardi. Tinch-xotirjam o‘tirardi. So‘qir ko‘zlari (u tug‘ma ko‘r edi) allaqayoqlarga, olis-olislarga “tikilardi”. Mana shu daqiqalarda uni kuzatish qiziq edi. Matryona huda-behudaga tantanali tomoshani buzaverardi – timirskilanib, chaqa-pul tashlash uchun zinaga alyumin do‘lchani qo‘yar, negadir guldor kashmiri sholro‘molni yarashsa-yarashmasa – axir, yosh qizcha emas – boshiga tashlab olardi... Matryonaga ko‘p ham e’tibor berishmasdi. Ganyaga nazar solishardi. Kutib turishardi. U esa asta, sipogina yo‘talib olardi-da, boshini salgina xam qilib, yolg‘iz o‘zigina ko‘radigan olislarga “tikilgancha”, boshlardi...

Ancha-muncha qo‘shiq bilardi. Hammasi urush, zindon, yetimchalar, daydilar haqida bo‘lardi... Orasida “diniy”lari ham chiqib qolardi, biroq ortidan “qizil” qo‘shiqlar yangrardi. Yoqmasa, iltimos qilishardi:

– Gan, oyoqsiz haqidagini boshla.

Ganya mehribon Xudojondan aqalli tushida bo‘lsayam oyoqchalar ato etishni so‘ragan, yurish qanaqa bo‘lishini bilishni juda-juda istagan oyoqsiz (qizaloq) haqidagisini kuylab ketardi...

Xotin-xalaj hiqillashga tushardi.

Matryona ham kashmiri sholro‘molining bir uchiga ko‘zyoshlarini artib olardi. Kim bilsin, balki jo‘rttaga qilgandir. U ilonning yog‘ini yalaganlardan edi.

Ganya “sibmaxlag”chilar (Sibir lagerlari mahkumlari) haqida, qochishni eplagan surgun haqida kuylardi; o‘sha qochoq qochishga qochibdi-yu, qayoqqa borishni bilmay boshi qotibdi, chunki xotini – suyuqoyoq bittasiga ilakishib, dom-daraksiz yo‘qolgan ekan-da.

Keyin “moviy, odmi durracha”-ni kuylardi...

Damlari ichiga tushib tinglashardi. Ganya past, bo‘g‘iq ovozda aytar, ba’zida (avjiga chiqqanda) birdan jim bo‘lib qolar, faqat soziga zo‘r berar, so‘ngra yana davom etardi. Qo‘shiqlari har xil bo‘lardi.

Yakshanba kun kampircha
Zindon sari yo‘l oldi.
Och qolgandir o‘g‘ilcha,
Tugun qildi, “oh” soldi.

Ganya yiroqlarga “tikilgani”, yuzi qayg‘uli va jiddiy tusga kirgani uchunmi, kampircha turma darvozasiga yaqinlashgani, tugunchasida ul-bul: bir tishlam moy, bo‘g‘irsoq, tuxum, lattaga o‘ralgan tuz, bir shisha sut borligi ko‘rinib ketardi go‘yo...

Tugunni ber, okasi,
Yo‘lda hamma gap qotdi –
Zindonband ko‘p, nechasi
Ochligidan tosh qotdi.

Xotin-xalaj, qari-qartang, bola-baqra bularning barchasini o‘zlaricha tushunishardi – u yoqda boyaqishlar ko‘pliginiyam, ochlikdan tirishib qolishlariniyam. O‘sha bechora “o‘tirgan”ga, kampirning o‘g‘liga “rizq”ini yetkazishlarini chin dildan istashardi – ozgina bo‘lsayam qorniga biron nima tushsin, chunki ahmoqqayam ayonki, avaxtada o‘zi emas. Ammo...

Dedi qo‘rchi yoyilib:
“O‘g‘ilginang gum bo‘ldi.
O‘tgan kunda otilib,
U dunyoga yem bo‘ldi”.

Bo‘g‘izga alam-dog‘ tiqilib qoladi. Odamni o‘kirib yuborgisi keladi... Ganya anglab turardi buni. Ammo miq etmasdi. Faqat mis qirrali eski garmonigina sado beraverardi. Keyin esa:

Ortga qaytdi kampircha
Zindondan bosh eggancha...
Bilmas endi hech kimsa
Yurakdagi dog‘ qancha.

Qanaqasiga bilishmasin – bilishardi! Ko‘z yoshi qilib olishardi-da, do‘lchaga beshtalik, o‘ntalik, yigirmataliklarni tashlashardi. Matryona kim qancha berayotganini hushyor kuzatib turardi. Ganya bo‘lsa garmonini quchoqlab o‘tirar, hamon o‘zining olis, noma’lum sayxonliklariga “tikilgani tikilgan” edi. Bu nigohlar g‘alati edi, tushuntirib bo‘lmas dahshatli, yurakni ezadigan.

Keyin urush tugadi. Omon qolgan erkaklar qaytib kelishdi... Qishloqqa jon kirib, gavjumlashdi. Radio o‘tkazishdi, patefon olib kelishdi – Ganya endi ortiqchaday tuyuldi. Matryona ikkovi kezinishdan to‘xtashmadi, lekin uni baribir berilib tinglashmasdi. To‘g‘ri, sadaqa berishardi, shunday – rahm qilib, ko‘zi ojiz odam, amal-taqal bo‘lsayam tirikchiligi o‘tsin, deb. Keyinroq Ganyani qishloq idorasiga chaqirishib:

– Senga nafaqa tayinlaymiz. Endi sang‘ib yurmagin, – deb uqdirishdi.

Ganya anchagacha raisga yonlamasiga qarab, og‘ziga talqon solib o‘tirdi. So‘ngra:

– Qimmatli hukumatimizga rahmat, – dedi-yu, ketdi.

Shundayam sandiroqlashni qo‘ymadi, faqat uzoqroqqa, o‘sha “isqoti radio‘” o‘tkazilmagan yerlarga boradigan bo‘ldi.

Ammo qancha uzoqqa borsa, shuncha battarlashaverdi. Yosh-yalang hatto ularning ustidan kulishgacha bordi.

– Siz, amaki... ko‘zga yosh keltirvoryapsiz-ku. Sho‘xrog‘idan chalsangiz bo‘lmaydimi?!

– He, zang‘arlar, – dili og‘ridi Ganyaning. – Ja-a ko‘p narsani tushunasanlar-da!

Shartta garmonini yig‘ishtirib, qopchig‘iga solardi-da, Matryona bilan yana olg‘a ketishardi... Lekin borgan sari ahvol chatoqlashaverdi.

Shundan keyin Ganya daydishni bas qildi.

Matryona ikkovlon tog‘ etagidagi choqqina kulbada turishardi. Matryona polizda kuymalanardi. Ganya nimaga unashni bilmasdi. Ichadigan odat chiqardi. O‘zlarining yerlarida Matryona bilan it-mushuk bo‘lib olishardi.

– Nafsingga o‘t tushsin! – shang‘illardi Matryona. – Ichib ado qilasan nafaqangni, keyin ikki barmog‘imizni burnimizga tiqib o‘tiraveramizmi?! Xumkallang ishlaydimi o‘zi yoki umuman ilma-teshik bo‘p ketganmi?

– Yum og‘zingni, – do‘q qildi Ganya. – Umuman ochma!

– Kapgir bilan boshingga bir tushiraman – ochish qanaqaligini ko‘rasan o‘shanda!.. Shayton olgur, ko‘rsoqqa.

Ganya dokadek oqarib ketdi.

– Sen mening soqqalarimga til tekkizma! Nurdan ajratgan senmassan meni, kim qo‘yipti senga bu gaplarni valdirashni!

Ganya allanechuk tajanglashib qoldi. U-bu joyga, to‘yga aytishsa, bosh tortadigan bo‘ldi.

– Men sizlarga masxarabozmasman, yallama-yorim qilishlaring uchun ting‘irting‘ir chalib bergani. Uqdinglarmi? Endi patefonlaring bor – o‘shaning nog‘orasiga o‘ynayveringlar.

Bir safar qishloq idorasidan yoshlar kelib-ketishdi (aftidan, Matryona halloslab borib shikoyat qilgan), yurak yutib og‘iz ochishdi:

– Siz shunaqa bir... ko‘zi ojizlar jamiyati borligini eshitgandirsiz...

– Ana o‘shaqqa borib yozilinglar, – dedi Ganya. – Menga shu yer ham bo‘laveradi. Anavi... mening... unga aytib qo‘yinglar: yana bir marta idorama-idora chopadigan bo‘lsa, oyoqlarini sindiraman.

– Nega shunaqasiz-a?

– Qanaqa?

– Sizga yaxshi bo‘lsin deyilyapti, axir...

– Men esam istamayman! Ular istashsa, men istamayman! Shunaqaman... nokas tug‘ilganman, o‘zimga yaxshilikni ravo ko‘rmayman. Nafaqamni to‘lab turibsizlar, shunisiga rahmat. Ortiq hech vaqo kerakmas sizlardan menga. O‘sha jamiyat-pamiyatlaringda balo bormi menga? Paypoq to‘qib, radio‘ eshitib o‘tiramanmi?.. Rahmat! O‘shaqdagilarga mendan boshim yerga tekkuncha ta’zimimni yetkazib qo‘yinglar.

...Faqat bir marta Ganyaning ko‘ngli orziqib ketdi, jon kirganday bo‘ldi, yosharib ketganday tuyuldi hatto...

Shahardan allaqanday odamlar – uch kishi kelib so‘rashdi:

– Gavrila Romanich Kozlov shu yerda yashaydimi?

Ganya sergaklandi.

– Nimaydi? Jamiyatga borish uchunmi?

– Qanaqa jamiyat?.. Siz ko‘pgina qo‘shiq bilarkansiz, bizga aytishdi...

– Xo‘sh?

– Bir eshitsak degandik. Yozib olsak bo‘lardi...

– Nega? – o‘smoqchiladi Ganya.

– Biz xalq qo‘shiqlarini yig‘amiz. Yozib olamiz. Qo‘shiqlar o‘lmasligi kerak...

Shunday so‘zlarni aytgan tilingga shakar, shaharlik!.. Ganya dik etib o‘rnidan turdi, ma’nosiz ko‘zlari pirpirab ketdi... Ko‘zyoshlarini tiyolmadi, quyilib kelaverdi, odamlar oldida yer yorilmadi-yu, kirib ketmadi. Keyin qovog‘ini uyib, yo‘talib qo‘ydi, anchagacha churq etolmadi.

– Bizga kuylab berasizmi?

– Kuylab beraman.

Po‘saxonaga chiqishdi. Ganya zinapoyaga o‘tirvoldi, tag‘in garmonini tizzasiga qo‘yvolib hafsala bilan uzoq sozladi, yelkasidagi tasmani yaxshilab to‘g‘rilab oldi. Yana yiroq-yiroqlarga “tikildi”, yuzida tantana va jiddiyat balqidi. Mung va nafislik ham.

Erta kuzakning to‘kin-sochin kunlaridan biri, yerda tinchlik-osoyishtalik, tanni yayratar iliqlik hukm surmoqda. Qishloqda yosh-u qari karam kesishga, kartoshkani o‘raga ko‘mishga, tomorqalarda ekin-tekin poyalarini hali quruqligida yoqishga shoshib, ish qaynayotgan mana shunday rohatijon kunda hech kim Gavrila Romanich Kozlovnikida bugun shodiyona ekanini bilmasdi.

Tomorqadan Matryona yetib keldi.

Qo‘shni Yegor Anashkin chetandevorga suyanib oldi... Po‘saxonaga allaqanday chambaraklar qo‘yib, qo‘llarida yon daftar bilan Ganyani eshitishga taraddudlanib turgan shaharliklarga angrayib qolishdi.

– Boshlanishiga munglisidan bo‘lsinmi yoki turma haqidagisidanmi? – so‘radi Ganya.

– Istaganingiz.

Ganya qo‘shig‘ini boshladi... O‘h, kuylagandayam, shunday kuyladiki! Avvaliga oyoqsiz qizcha haqidagisini aytib ko‘rdi. Nima deyisharkin, deb to‘xtadi. Zo‘r diqqat bilan yiroqlarga “tikildi”.

– Bironta, haligi... jiddiyrog‘idan... Yo‘q, buyam yaxshi! Lekin... bironta haqiqiy dardlisidan bo‘lsin...

– Nahotki, oyoqsiz qolish dard bo‘lmasa? – hayronlandi Ganya.



Vasiliy SHUKSHIN (1929–1974)

– Dard, dard, – ko‘na qolishdi. – Xullas, istaganingizni kuylayvering.

Mitrofan mozor joyda
Ota qizin shart otdi, –

qo‘shig‘ini kuylay ketdi Ganya. Ich-ichidan to‘lib-toshib, qoyillatib kuyladi.

– Bunisini bilamiz, eshitganmiz, – deb shart to‘xtatishdi uni.

Ganya elovlandi.

– Bo‘lmasa, qanaqasi?

Shu joyida uch shaharlik o‘zaro bahslashib ketishdi: biri qatorasiga yozish kerak, desa, ikkitasi, nega ekan, deb oyoq tirab turib oldi.

Ganya zo‘riqib eshitib turdi. O‘sha-o‘sha olislarga “tikilib” qoldi – aftidan, uni tinglab, bahslashgan emas, hiq-hiq yig‘lashgan damlarni tasavvur qildi.

– Turma haqidagisiyam bor, devdingiz. Qani. Bir eshitaylik.

Ganya garmonni yoniga qo‘ydi. Tutatib chekdi.

– Turma – yomon gap, – dedi. – Xudo ko‘rsatmasin. Nima qilasizlar-a?

– Nega, axir?!

– Yo‘q, yaxshilar, yetar. O‘yin-kulgi qildik, shuning o‘zi yetadi. – Yana-tag‘in teskari to‘nini kiyib oldi Ganya.

– Odamlar iltimos qilishyapti, axir! – tumshuq suqdi Matryona. – Namuncha tarang qilmasang?

– O‘chir! – cho‘rt kesdi Ganya.

– Eshak, – dedi-yu, Matryona tomorqaga qarab ketvordi.

– Bizdan ranjidingizmi? – so‘rashdi shaharliklar.

– Nega ranjirkanman? – hayron bo‘ldi Ganya. – Yo‘g‘e. Nega ekan? Sizlarga qanaqa qo‘shiq kerakligini bilmas ekanman, xolos. Bor-yo‘g‘i shu.

Shaharliklar jomadonlarini yig‘ishtirishdi, Ganyaga tashakkur bildirib, uch rubl berishdi va ketishdi.

Yegor Anashkin pastak chetandevordan oshib o‘tib, Ganyaning yoniga cho‘kdi.

– Rostdanam, nimaga tixirlik qilding? – qiziqsindi u. – Aytib beravermaysanmi, ko‘proq tashlab ketisharmidi.

– Cho‘chqalaringni boqyapsanmi? – so‘radi Ganya birmuncha sukutdan keyin.

– Boqishga-ku boqyapman, – xo‘rsindi Yegor. – Endi qayoqqa gumdon qilishni bilmayapman jin urgurlarni. O‘shanda boplab laqillatishdi-da, bittasini besh puldanmish! Endi qayoqqa yetaklayman o‘lgurlarni? Bozorgami – shundog‘am mensiz tiqilib yotibdi ag‘da, bir menmidim shunaqa...

Yegor tutun burqsitib, o‘yga toldi.

– E, seni qara-yu, cho‘chqavoz! – dedi Ganya birdan quvnab. – Ma, uchtalikni ol – borib bir shisha opke. Cho‘chqalaringning sog‘lig‘i... innaykeyin... g‘am tortmasliging uchun ichamiz.

Rus tilidan Saidjalol SAIDMURODOV tarjimasi

YANGI BEKOBOD
Muassis: Bekobod tumani hokimligi

Bosh muharrir
Sarvinoz SHERALIYEVA

Manzilimiz:
"Zafar" shaharchasi, hokimiyat binosi, 3-qavat.
tel: (998) 55 902 59 94
elektron manzilimiz:
E-mail: yangibekobod@umail.uz

Toshkent viloyati Matbuot va axborot boshqarmasida 2011-yil 12-sentyabrda 03-023 raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr ko‘rsatkichi 7013.

Gazeta tahririyat kompyuter bazasida terilib, sahifalandi. Buyurtma №
Adadi 1825 nusxa. "NISO NASHRIYOT VA MATBAA UYI" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Korxona manzili: Toshkent viloyati, O‘rta Chirchiq tumani,"Oq ota" Q.F.Y. Mash’al mahallasi, Markaz-1
Bosishga topshirish vaqti: 10:00.
Bosishga topshirildi: 11:00.

ISSN 2091-5497